

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
“XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI VA MAMLAKATSHUNOSLIK”
FAKULTETI
“OSIYO-TINCH OKEANI MINTAQASI VA JANUBIY OSIYO
MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI VA MAMLAKATSHUNOSLIGI”
KAFEDRASI

Qo’lyozma huquqida

QURBONOV ABROR ROXULLAYEVICH

**JANUBIY-SHARQIY OSIYO MINTAQASI MAMLAKATLARI
IQTISODIY RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY
TENDENSIYALARI**

5231000 – “Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik”

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: o‘qit. Salimova Yu.I. _____

Ilmiy maslahatchi: i.f.n. Azizova N.T. _____

Toshkent-2015

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA JAHON XO‘JALIGI RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI	7
1.1. Iqtisodiy rivojlanishning konseptual va ilmiy nazariy asoslari.....	7
1.2. Globallashuv sharoitida jahon xo‘jaligining rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tendensiyalari.....	13
1.3. Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasining umumiy tavsifi va iqtisodiy tasnifi.....	20
II BOB. JANUBIY-SHARQIY OSIYO MINTAQASI MAMLAKATLARINING XALQARO MAYDONDA TUTGAN O‘RNI, IQTISODIY RIVOJLANISHI VA UNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI	26
2.1. Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasida “Yangi industrial mamlakatlar”ning paydo bo‘lish shart-sharoitlari va ularning iqtisodiy rivojlanish bosqichlari.....	26
2.2. Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlari iqtisodiy birlashmasi-ASEANda integrasion jarayonlarining mintaqa iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyati va tashkilot faoliyatining zamonaviy xususiyatlari.....	40
2.3. O‘zbekistonda Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish tajribasidan foydalanish imkoniyatlari.....	51
XULOSA	58
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	61

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi zamon jahon xo'jaligida Yangi industrial deb nom olgan mamlakatlar xalq xo'jaligining ichki dinamikasi hamda tashqi iqtisodiy munosabatlarning ekspansiyasi bo'yicha rivojlanishning o'ziga xos namunasi bo'lib qoldilar. Odatda "Yangi industrial mamlakatlar" qatoriga Osiyodagi to'rtta qayd etilib o'tilgan Janubiy Koreya, Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur, shu bilan bir qatorda Lotin Amerikasidagi Yangi industrial mamlakatlar - Argentina, Braziliya, Meksika va Chili taalluqli bo'lib hisoblanadi. Nomma-nom sanab o'tilgan barcha davlatlar Yangi industrial mamlakatlarning birinchi qaldirg'ochlari sanaladi. Ularning orqasida "Yangi industrial mamlakatlar"ning so'nggi avlodlari etishib chiqmoqda. Masalan: ikkinchi avlod davlatlariga Filippin, Xitoyning janubiy chegaralari va boshqalar kiradi. "Yangi industriallashuvning" butun boshli zonalari, yaqin mintaqalarda o'z ta'sirini o'tkazayotgan iqtisodiy o'suvchanligi yuqori bo'lgan tizimlar paydo bo'lmoqda.

Iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, xalq xo'jaligining barcha sohalarida xususiy mulk ko'lami va xo'jalik subektlari iqtisodiy erkinliklarining kengayishi, xalqaro iqtisodiy aloqalarni mustahkamlanishi xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanish bo'yicha ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni rag'batlantiradi. Xorij, shu jumladan, ASEAN mamlakatlarining tajribasi shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalarning milliy tabiiy, ishlab chiqarish va mehnat resurslari bilan birlashuvi progressiv texnologiyalarni, zamonaviy boshqaruv va ishlab chiqarishni tashkil etish usullarini qo'llash chog'ida, foydalanilayotgan ishlab chiqarish omillarini xo'jalik aylanmasiga kiritishda yuqori yalpi samarani vujudga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida so'zlagan nutqlarida mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov: "Biz oddiy bir haqiqatni doimo esda tutishimiz darkor. Ya'ni sarmoyasiz taraqqiyot yo'q, ishlab

chiqarishni va umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi"¹ deb ta'kidlab o'tdilar.

Tashqi savdo mintaqa iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Eksportda qalayi (dunyo bo'yicha 75%), rangli metall rudalari va neft, mahsulotlari, shirik ziravorlar, tabiiy kauchuk (dunyo bo'yicha 50%), mevalar (jumladan, konservalar) va dengiz mahsulotlari kabi an'anaviy mahsulotlaridan tashqari, 80-yillardan boshlab ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq, zamonaviy va o'ta zamonaviy mashinasozlik, elektrotexnika va elektronika (ayniqsa, maishiy elektronika mahsulotlari, kompyuter texnikasi, xizmatlar (mehmonxona va restoran xizmati, turizm va boshq) ko'rsata boshladi Import asosan ishlov beruvchi sanoat mahsulotlari (mashinasozlik va kimyo sanoati), paxta tolasi muhim o'rin tutadi

Bu masalaga faqat Respublika miqyosida emas, balki har bir tarmoq va mintaqa nuqtai nazaridan yondashish, ularning manfaatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda muammo yechimini izlash hozirgi davr talabidir.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining tadqiq etilganlik darajasi. Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari rivojlanishi bosqichlari va omillarini tadqiq etishga Respublikamizda A. Vaxabov, E. Maxmudov, R. Shodiyev, G. Nazarova, A. Soliyev, R. Maxammadaliyev, O. Abdullayev, X. Abdunazarovlarning ishlari katta ahamiyatga ega.

Mazkur mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi borasida shuningdek A. Kireev, V. Kudrov, E. Avdokushin, B. Smitienko, V. Abramov, E. Kochetov, E. Kobelev, G. Lokshin, N. Maletin, A. Acharya, A. Collins, Yo. Lee, R. Severino, J. Hakey kabi bir qator xorijlik tadqiqotchilarni ham alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifasi. Bitiruv malakaviy ishning maqsadi Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining rivojlanish

¹ Каримов И.А. 2014 йил юкори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислохотлар стратегиясини изчил давоам этириш йили бўлади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг 2013 йилда ижтимоий –иқтисодий ривожланиш яқунлари ва 2014йилг мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. Халқ сўзи, 18 январь 2014 йил.

tendensiyalarini o'rganish va uning ahamiyatli jihatlarini yoritib berish hamda va ulardan samarali foydalanish amaliyotini o'rganish va ushbu tajribani O'zbekiston sharoitida qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Malakaviy ishning maqsadidan kelib chiqib, unda quyidagi vazifalarni bajarish belgilab olindi:

- Jahon xo'jaligining rivojlanish bosqichlari va tendensiyalarini tahlil etish;
- Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi haqida umumiy tushunchalarni berish;
- Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasida "Yangi industrial mamlakatlar"ning paydo bo'lish shart-sharoitlari va ularning iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini yoritish;
- Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlari iqtisodiy birlashmasi-ASEANda integrasion jarayonlarining mintaq iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyati va tashkilot faoliyatining zamonaviy xususiyatlarini tahlil etish;
- Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish tajribasidan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlarini va tavsiyalarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti. Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining 20 asr oxiri va 21 asr boshlaridagi iqtisodiy rivojlanishi obyekt sifatida olingan .

Tadqiqot predmeti sifatida mintaq mamlakatlarining rivojlanishi, unda yangi industrial mamlakatlar guruhining shakllanish hamda ASEANdagi integratsion masalalar o'rin olgan.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asosi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ilmiy asarlari, mamlakatimiz va xorij iqtisodchi olimlarning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi va mintaqaviy iqtisodiyotga oid ilmiy tadqiqotlari natijalari xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot davomida ushbu sohaga oid O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, mintaq mamlakatlarining ayrim qonunchilik jihatlarini asos qilib olindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi global moliyaviy inqiroz sharoitida va undan keyingi davrda Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari hamda ular oldida turgan ayrim muammolar yoritib o'tilgan. Shuningdek ularning investitsiya siyosati borasidagi ishlarining ayrim jihatlarini Respublikamiz sharoitida foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida erishilgan asosiy natija, xulosa va tavsiyalardan mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini kengaytirishga qaratilgan loyiha va dasturlarni ishlab chiqishda hamda Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatalri va O'zbekiston savdo-iqtisodiy, investitsiya hamkorligini rivojlantirishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi kirish, ikki bob, xulosa va hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. GLOBALASHUV SHAROITIDA MAMLAKATLAR IQTISODIY RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

1.1.Mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining konseptual va ilmiy nazariy asoslari

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko‘p omilli va shu bilan birga ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo‘yicha ro‘y bermaydi.

Iqtisodiy rivojlanish o‘z ichiga yuksalish va inqiroz davrlarini, iqtisodiyotdagi miqdor va sifat o‘zgarishlarni, ijobiy va salbiy tamonlarni olib notekis boradi.

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo‘lganligi sababli, uning mezonlaridan biri bo‘lgan iqtisodiy o‘sinh ko‘proq tahlil qilinadi. Iqtisodiy o‘sinh iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘z ifodasini real YaIM hajmining va uning aholi jon boshiga ko‘payishida topiladi.

Iqtisodiy o‘sinhga tarixiy jihatdan yondashilganda, u bir xil sur‘atlarda va bir tekis bormaydi. Tarixda iqtisodiy o‘sinh suratlarining jadallashish, jiddiy pasayish va hatto cheklanish davrlari ma’lum. Agar katta tarixiy bosqichlar olib qaraladigan bo‘lsa, jahon va milliy iqtisodiyotda, barqaror iqtisodiy o‘sinh, ishlab chiqarishning har tomonlama taraqqiyot manzarasi hosil bo‘ladi. Shu bilan birga iqtisodiy o‘sinh nafaqat miqdor, balki muayyan sifat o‘zgarishlari shaklida ham namoyon bo‘ladi. Shunday ekan iqtisodiy o‘sinh bevosita yalpi ichki mahsulot miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs harajatlari birligi hisobiga ko‘payishi hamda sifatining takomillashuvida ifodalanadi².

Mahsulotning o‘sinh sur‘ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o‘zgarishi o‘rtasidagi nisbat iqtisodiy o‘sinhning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

² uz.denemetr.com/docs/.../index-91629-1.html

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun mavjud korxona bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati bo'yicha, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha xuddi o'shanday yana bir korxona quriladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish: yanada progressivroq ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirishi, shuningdek mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa oshirish uchun mavjud korxonaga teng bo'lgan yana bir korxona qurishga hojat yo'q. Bu natijaga ishlab turgan korxonani rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta qurollantirish, mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga erishish mumkin.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda, alohida-alohida mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikda, bir-biri bilan qo'shilgan tarzda bo'ladi. Shu sababli ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o'sish turlari tahlil qilinadi.

Iqtisodiy o'sish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Shu sababli uni baholash uchun qandaydir bitta ko'rsatkich kifoya qilmaydi, muayyan ko'rsatkichlar tizimi talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlar tizimida jismoniy va qiymat ifodasidagi ko'rsatkichlar farqlanadi.

Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari ancha aniq natija beradi, (chunki ular inflyatsiya ta'siriga berilmaydi), lekin universal emas (iqtisodiy o'sish sur'atlarini hisoblashda har xil ne'matlar ishlab chiqarishni umumiy ko'rsatkichga keltirish qiyin). Klimat ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi, ammo har doim ham uni

inflyatsiyadan to'liq "tozalash" mumkin bo'lavermaydi. Shu sababli iqtisodiy o'sish sur'atlari qiyosiy yoki doimiy narxlarda hisoblanadi.

Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy o'sishning asosiy qiymat ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

- YaIM yoki milliy daromad hajmining real ko'payishi;
- YaIM yoki milliy daromadning aholi jon bosh hisobiga o'sishi;
- YaIM yoki milliy daromadning iqtisodiy resurs harajatlari birligi hisobiga ortishi;

Iqtisodiy o'sishni aniqlashda har uchala ko'rsatkichdan ham foydalanish mumkin, lekin ularning ahamiyati turlicha.

Masalan: agar diqqat markazida iqtisodiy potensial muammosi tursa, birinchi ko'rsatkichdan aniqlash ko'proq mos keladi. Alohida mamlakat va regionlardagi aholini turmush darajasini taqqoslashda, ko'proq ikkinchi ko'rsatkichdan foydalaniladi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda uchinchi ko'rsatkichga ustuvorlik beriladi³.

Odatda iqtisodiy o'sish foizda o'sishning yillik sur'ati sifatida aniqlanadi. Masalan, agar o'tgan yili real YaIM 60 mlrd. so'mni va joriy yilda 70 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, o'sish sur'atini joriy yildagi real YaIM hajmiga bo'lish yo'li bilan aniqlash mumkin. Bu holda o'sish sur'ati 16,6% ni $(70/60 \cdot 100)$ tashkil qiladi.

Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini xarakterlovchi ko'rsatkichlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, mehnat unumdorligi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda massasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

- a) ishlab chiqarish vositalarining rivojlanish darajasi, ya'ni uning unumdorligi;
- b) xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi;

³ el.tfi.uz/pdf/iqtisodiyotnazariyasi_uzl.pdf

v) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat;
g) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

Iqtisodiy o'sishning jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan boshqa ko'rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi hisoblanadi. U tarmoqlar bo'yicha hisoblab chiqilgan YaIM ko'rsatkichi asosida tahlil qilinadi. Bunda xalq xo'jaligining yirik sohalari, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi nisbat ham o'rganiladi⁴.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar iqtisodiyotning jismoniy o'sish layoqatini belgilab beradi, ular taklif omillari deb ham ataladi. Bu omillar quyidagidar:

- 1) tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
- 2) mehnat resurslari miqdori va sifati;
- 3) asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi;
- 4) texnologiya va fan-texnika taraqqiyoti.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tishi davrida amalga oshirilayotgan "...tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy o'siishing hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda".

Iqtisodiy o'sishga taqsimlash omillari ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish potensialidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi, balki juda samarali ishlatish ham zarur. Resurslarni o'sib boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning mutlaq miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham zarur bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi, taklif va taqsimlash omillari o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi. Masalan, resurslar miqdorining o'sishi va sifatining yaxshilanganligi, texnologiyani takomillashtirish iqtisodiy o'sish uchun imkoniyat yaratadi. To'liq bandlik va resurslarni samarali taqsimlash bunday o'sishni ro'yobga chiqaradi.

⁴ elibrary.nammpi.uz/index.php/component/.../4-menejment.download

Iqtisodiy o'sishda resurslarni taqsimlash omillari ham o'z o'rniga ega bo'lsa-da, bu muammoni tahlil qilishda asosiy e'tibor taklif omillariga qaratilishi zarur.

Real mahsulot ikki asosiy usulda ko'paytirilishi mumkin:

- 1) resurslarning ko'proq hajmini jalb etilishi;
- 2) ulardan ancha unumli foydalanish yo'li bilan.

Mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini harakterlaydigan ko'rsatkichlar (real YaIM va aholi jon boshiga real YaIMning o'sishi) miqdoriy ko'rsatkichlar bo'lib, ular:

– birinchidan mahsulot sifatining oshishini to'liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikniig haqiqiy o'sishini to'liq xarakterlab bera olmaydi;

– ikkinchidan, real YaIM va aholi jon boshiga YaIMning o'sishi bo'sh vaqtning sezilarli ko'payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko'rsatilishiga olib keladi, uchinchidan, iqtisodiy o'sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof muhitga va insonning hayotiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi.

Shuning barobarida hozirgi globallashuv jarayonlaridan kelib chiqqan holda shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, yuqoridagi iqtisodiy o'sish xususiyatlari turli mamlakatlarda turlicha baholanadi. Bu ular orasidagi turli tavofutlarni ham keltirib chiqaradi.

Shuning uchun iqtisodiy o'sishga erishish uchun iqtisodiy muvozanat o'rnatilishi kerak.

Iqtisodiy muvozanatlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Yalpi talab va taklif o'rtasidagi muvozanat. Yalpi talab jami ishlab chiqarilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarga sarflangan xarajatlarni ko'rsatsa, yalpi taklif ijtimoiy ishlab chiqarish hajmini ko'rsatadi. Muvozanatning bo'lmasligi iqtisodiyotda "defitsit" ga yoki ortiqcha ishlab chiqarishga olib kelishi mumkin. "Defitsit" narx-navo ko'tarilishiga va aholi turmush darajasi tushib ketishiga olib kelsa, ortiqcha ishlab chiqarish takror ishlab chiqarishni izdan chiqaradi va inqiroz holatlarini keltirib chiqaradi.

2. Ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar o'rtasidagi muvozanat. Talab taklifni keltirib chiqaradi. Bu qonun iqtisodiyotning fundamental qonunlaridan biridir. Ammo, taklifga qarab talab paydo bo'ladi deb hisoblovchi nazariyalar ham bo'lgan, unga ko'ra bozor o'z iste'molchisini topadi. Muvozanatning ushbu turida iste'molchilar daromadi haqida axborot yetarli bo'lsagina ishlab chiqaruvchilar o'z faoliyatlaridan maksimal foyda, iste'molchilar maksimal naf oladilar.

3. Uy xo'jaliklari daromadlari bilan ularning xarajatlari o'rtasidagi muvozanat. Uy xo'jaliklari daromadlari tarkibi qanchalik differensial (xilma-xil) bo'lsa, ularning xarajatlarini prognozlashtirish shunchalik oson bo'ladi. Doimiy daromad manbai bo'lmagan uy xo'jaliklari ham borligini e'tiborga olsak, ular yashash minimumi uchun baribir "avtonom xarajat"lar qiladilar. Ya'ni "avtonom xarajatlar" daromadga bog'liq emas, daromadga ega bo'lmagan uy xo'jaliklari ham ushbu xarajatlarni amalga oshiradilar. Bu narsa "qarzga yashash" deb ataladi. Daromadlarning xarajatlardan oshishi aholi qo'lida oshiqcha pul paydo qiladi. Aholi qo'lidagi oshiqcha pul jamg'armani shakllantiradi. Bu esa potensial investitsiya degani. Ammo, aholi qo'lidagi ishlatilmay turgan pullarning to'planishi inflyatsiya jarayonlarini kuchaytirib yuboradi.

4. Pul massasi bilan tovar va xizmatlar bozoridagi muvozanat. Milliy iqtisodiyotdagi pul massasi yaratilgan tovar va xizmatlar hajmiga mos bo'lishi kerak. Tovlar va xizmatlar bilan ta'minlanmagan pullarning mavjud bo'lishi iqtisodiyotga halokatli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Pullar juda "oquvchan" bo'lgani bois pul muomalasini nazorat qilish qiyin. Shuning uchun ma'lum miqdorda eng sog'lom deb hisoblanuvchi iqtisodiyotlarga ham 6-7 % inflyatsiya tabiiy holdir.

5. Jamg'arish va investitsiya hajmi o'rtasidagi muvozanat. Jamg'arish iqtisodiyot miqiyosida yaratilgan qo'shilgan qiymat (foйда, daromad) larning jamlanmasidir. Qo'shilgan qiymat o'z navbatida investitsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi.

6. Investitsiyalar va iqtisodiy o'sish darajasi o'rtasidagi muvozanat. "Ekonomics" darsliklaridan ma'lumki, YaIMning 30 foizi investitsiyaga

yoʻnaltirilsa, iqtisodiyot 6 foizga oʻsadi. Demak, iqtisodiy oʻsish investitsiyalar kiritishni taqazo etadi.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, iqtisodiyotda kuzatiluvchi beqarorliklarni bartaraf etishda iqtisodiy jarayonlarning muvozanatiga erishish kerak. Iqtisodiyotni bir butun tizim sifatida olib qaraydigan boʻlsak, u oʻzaro aloqada va bogʻliqlikda rivojlanuvchi bir butunlik sifatida tushunilar ekan, unga dinamik oʻzgarishlar xosdir. Xuddi shuningdek, bozor iqtisodiyoti tizimi ham barqarorlikka moyil boʻlmagan iqtisodiy tizimligi bois iqtisodiy muvozanatlarga erishish iqtisodiy oʻsishning asosiy shartidir.

1.2. Globallashuv sharoitida mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari

Zamonaviy jahon xoʻjaligi bu - bozor iqtisodiyotining obyektiv qonunlariga boʻysunuvchi, oʻzaro bogʻliq boʻlgan milliy iqtisodiyotlar birlashmasi, global iqtisodiy organizmdir.

Jahon xoʻjaligi rivojlanishining bosqichlari vujudga kelish va rivojlanishda uzoq va qiyin yoʻl bosib oʻtdi. Ayrim tadqiqotchilar uning vujudga kelishini Rim imperiyasi davriga bogʻlashadi. Bunda ular Rim imperiyasini oʻsha vaqtdagi butunjahon xoʻjalik tizimi deb baholaydilar. Boshqa olimlar Jahon xoʻjaligi faoliyat koʻrsata boshlagan vaqtni XV-XVI asrlar, yaʼni buyuk jugʻrofiy kashfiyotlar davri bilan bogʻlaydilar. Aynan shu kashfiyotlar qimmatbaho toshlar, metallar, shirinliklar va hokazolar bilan xalqaro savdoning tez rivojlanishiga sabab boʻldi. Ammo bu davrdagi jahon xoʻjaligi cheklangan boʻlib, faqat savdogarlar sarmoyalari ishlaydigan soha edi.

Zamonaviy jahon xoʻjaligi sanoat inqilobidan keyin, kapital monopol bosqichiga oʻtishi davomida vujudga keldi. XIX asr oxiri-XX asr boshidagi jahon xoʻjaligi XX asrning 1960-1990 yillaridagi jahon xoʻjaligidan sezilarli farq qiladi.

XX asrdagi jahon xoʻjaligi “kapital kuchiga” nisbatan koʻp jihatdan oddiy kuchga, iqtisodiyotga yot boʻlgan majburiyatlarga asoslangan edi. Bu davrdagi

jahon xo‘jaligida o‘tkir qarama-qarshiliklar mavjud edi. Bu esa uni nobarqaror qilardi. Bu imperialistik mamlakatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar (ikkita jahon urushiga olib kelgan), shuningdek, sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklardir. XX asr o‘rtalariga kelib jahon xo‘jaligi ikki qismga: jahon kapitalistik va jahon sotsialistik xo‘jaliklarga bo‘lingan edi.

Jahon iqtisodiy aloqalari tizimida jahon kapitalistik xo‘jaligi ustunlik qilar edi. 1990-yillar boshida xalqaro savdo tovar aylanmasining 10 dan 9 qismi jahon kapitalistik xo‘jaligi doirasida ro‘y berardi; 80-yillar oxirida xalqaro iqtisodiy ayirboshlash kanallari orqali kapitalistik dunyo umumiy yalpi mahsulotining bor-yo‘g‘i 5dan 1 qismi sotilardi xolos.

1960-yillardan boshlab jahon xo‘jaligi tizimiga rivojlanayotgan davlatlar qo‘shildi. 1970-yillarning o‘rtalarida ular orasida YAID – “yangi industrial mamlakatlar”, ya’ni Janubi-Sharqiy Osiyo (Birinchi oqim - 4 kichik “ajdaho” - Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur) va Lotin Amerikasi davlatlari Braziliya, Argentina, Meksika sezilarli darajada ajralishdi.

Sobiq Ittifoq tarqalib ketganidan keyin va Sharqiy Yevropada inqilobiy o‘zgarishlardan keyin jahon xo‘jaligi yaxlit, butun organizm ko‘rinishni oldi. Shakllanayotgan global jahon xo‘jaligi bir tekis bo‘lmagan holda, o‘z ichiga sanoati rivojlangan davlatlar, rivojlanayotgan davlatlar va o‘tish shaklidagi iqtisodiy tizimli davlatlarning milliy iqtisodiyotlarini o‘z ichiga oladi.

Tashqi bozorga yuz tutgan ko‘plab qarama-qarshiliklar va turlicha tendensiyalarni saqlab qolgan holda XXI asr bo‘sag‘asidagi jahon xo‘jaligi XX asr o‘rtasidagi jahon xo‘jaligidan solishtirib bo‘lmaydigan darajada ko‘proq ajralmas, integratsiyalashgan va dinamikdir.

XXI asr bo‘sag‘asidagi jahon xo‘jaligi - o‘z miqyosiga ko‘ra globaldir; u to‘liq ravishda bozor iqtisodiyotining tamoyillari, xalqaro mehnat taqsimotining obyektiv qonuniyatlariga, ishlab chiqarishning baynalminallashuviga asoslanadi.

Urushdan keyingi o‘n yillikda jahon xo‘jaligi rivojining yetakchi tendensiyalaridan biri, bu ko‘plab davlatlarning birin-ketin yopiq milliy xo‘jalikdan iqtisodiy ochiq tipdagi xo‘jalikga o‘tish hisoblanadi. Urushdan keyingi

iqtisodiy tiklash davrida va keyingi yillardagi boshlab, G'arb davlatlari hukumatlari yanada faol ravishda oldingi avtokratik qoldiqlardan qutilmoqdalar.

Aynan AQSh "Ochiq savdo", "Ochiq iqtisodiyot" degan go'yalari bilan chiqdilar. Bu avvalo jahon bozorida o'z xohishlarini o'tkazish uchun edi. Ikkinchi jahon urushidan g'olib va yanada boyib chiqqan jahonning eng ilg'or savdo mamlakati sifatida yangi iqtisodiy tartib qo'llanmalari taklif etildi. Bunday "erkin savdo" va "ochiq iqtisodiyot" hukmron iqtisodiyotning kamroq rivojlangan davlatlarga qarshi quroli, amerika korporatsiyalarining tutib bo'lmas ekspansiyasiga intilishlari edi. Bunday "ochiq" iqtisodiyot haqida Fransiyalik iqtisodchi Mishel Pebro ochiq-oydin shunday degan "Ochiq, erkin savdo - ilg'or iqtisodiyot uchun eng qulay o'yin qoidalaridir".

Ammo urushdan keyingi dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy holatning o'zgara borishi bilan ochiq iqtisodiyot haqidagi qarashlar bir tomonlamalik, amerika ekspansionizmining manfaatlariga yo'naltirilganlikni yo'qotdi va obyektiv, chuqur omillar faoliyatiga asoslangan, jahon xo'jalik aloqalarining baynalmilallashuvi ma'nosini ola boshladi.

Ochiq iqtisodiyotni shakllantirishda davlat katta rol o'ynadi. Davlat tovar va xizmatlar olib chiqishni rag'batlantirib, xorijiy firmalar bilan kooperatsiyalarga, tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishiga yordamlashib o'ziga eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni rag'batlantirish funksiyasini oldi. Chet eldan investitsiyalar, texnologiyalar, ishchi kuchi va axborot oqib kelishini yyengillashtirgan mustahkam huquqiy asos yaratildi.

Mamlakatlarning ochiqroq iqtisodiyotga o'tishlari transmilliy korporatsiyalar (TMK) faoliyati bilan tezlashdi. Yangi bozorlarni o'zlashtirishga intilib, turli mamlakatlarda ko'plab filiallar, shu'ba korxonalari tashkil etib, TMK chet davlatlarning proteksionistik to'siqlarni aylanib o'tardilar va xalqaro iqtisodiy ayirboshlashni baynalminallashtirdilar.

XX asrning ikkinchi yarmida transport, axborot - aloqa vositalarining sezilarli rivojlanishi ham milliy iqtisodiyotlar ochiqligi rivojlanishida, aholi harakatchanligining oshishida katta rag'batlantiruvchi rol o'ynadi.

Asta-sekin, uzoq vaqt mobaynida davlatlarning bir-biridan ajratib turgan savdo-iqtisodiy, valyuta-moliyaviy to'siqlar olib tashlandi. Xalqaro ayirboshlashning erkinlashtirilishi milliy xo'jaliklarning tashqi sharoit va ta'sirlarga moslashishini yyengillashtirdi, ularning xalqaro mehnat taqsimotiga yanada faol qo'shilishiga imkon yaratdi.

1960-yillardan boshlab ochiqlik jarayonlari qator rivojlanayotgan mamlakatlarga tarqala boshladi. 1980-yillar boshidan Xitoy ham ochiqlik siyosatiga tarafdorligini e'lon qildi. "Ochiqlik termini" dunyoning ko'plab mamlakatlari lug'atiga kirdi. Masalan arabcha-"infitax", xitoycha-"kayfan" va hokazolar.

"Erkin savdo" va "ochiq iqtisodiyot" tushunchalarini farqlash lozim. "Erkin savdo" haqidagi tushuncha A.Smit siyosiy iqtisodiyotidan boshlanadi va zamonaviy amerika iqtisodchilarining kashfiyoti emas. "Ochiq iqtisodiyot" tushunchasi ishlab chiqarish omillari, axborot, milliy valyutalarning o'zaro almashuvining erkin harakatini o'z ichiga olgan tovarlar savdosi sifatida "erkin savdo" tezisidan kengroq tushunchadir.

Ochiq iqtisodiyotni avtarkiya, o'z-o'zini ta'minlash iqtisodiyoti, haddan tashqari o'z kuchiga suyanishning antipodi sifatida tushunish lozim. Ochiq iqtisodiyotning vujudga kelishi - bu jahon rivojlanishining obyektiv tendensiyasidir. Ochiq iqtisodiyot tamoyillariga mos ravishda harakat qilish bu jahon bozori standartlarini tan olish, uning qonunlari asosida harakat qilishdir.

Ochiq iqtisodiyot iqtisodiyotning yaxlitligini, jahon xo'jaligiga, jahon bozoriga integratsiyalashgan yagona iqtisodiy majmuani nazarda tutadi. Ochiq iqtisodiyot bu turli hamkorlikdagi tadbirkorlik shakllaridan faol foydalanish, erkin tadbirkorlik zonalar tashkil qilish, tashqi savdoda davlat yakka hokimligini yo'qotish (ko'p sohalar bo'yicha), xalqaro mehnat taqsimotida davlatning nisbiy ustunliklaridan samarali foydalanishdir.

Iqtisodiyotning eng muhim o'lchovlaridan biri ma'lum iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va xalqaro raqobatbardoshlilik doirasida (soha va makroiqtisodiy darajada) kapital qo'yilmalar, texnologiyalar, axborot oqimini rag'batlantiruvchi

qulay investitsion muhitdir. Ochiq iqtisodiyot ichki bozorning chet el kapitali, tovarlari, texnologiyalari, axborotlari, ishchi kuchining oqimi uchun aqlga to'g'ri keladigan darajada ochiqligini nazarda tutadi.

Ochiq iqtisodiyotning afzalliklari quyidagilardir:

- ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va koperatsiyalashuvining chuqurlashishi;
- resurslarni mulohazakorlik bilan samaradorlik darajasiga qarab taqsimlash;
- xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimi orqali jahon tajribasining tarqalishi;
- jahon bozoridagi raqobat tomonidan rag'batlantiriladigan milliy ishlab chiqaruvchilar orasida raqobatning kuchayishi.

Shakllanib bo'lgan ochiq iqtisodiyot va ochiq iqtisodiyotga o'tish bir xil narsa emas. Ochiq iqtisodiyot davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarida nazoratsizlik va hamma narsa mumkin, chegaralar ochiq degani emas. Ochiq iqtisodiyot uning aqlga sig'adigan darajada amalga oshirish mexanizmini shakllantirishda davlatning sezilarli aralashuvini talab qiladi. Hech bir mamlakatda iqtisodiyotning absolyut ochiqligi yo'q.

Stixiyali ochiqlik nafaqat iqtisodiy rivojlanish yordam bermaydi, balki iqtisodiy xavfsizlikka xavf tug'diradi. Samaradorlik, raqobatbardoshlik, milliy xavfsizlik tamoyillari asosida ko'rilgan ochiqlik eksport strukturasi va kapital harakati, shuningdek ular tashqi dunyo bilan o'zaro ta'sirining faqat shakliga emas, balki valyuta, soliq, kredit va investitsiya siyosatini hisobga olmasdan turib tushunib bo'lmaydi.

Ochiqlik miqdorining 1-darajali indikatoriga eksport va importning ichki yalpi mahsulotdagi ulushini kiritish mumkin. Ularning kombinatsiyasi alohida milliy iqtisodiyotlarning jahon bozori bilan aloqalarining miqyosi haqida tushuncha beradi. Shunday qilib, eksportning YaIMga munosabati eksport kvotasi sifatida aniqlanadi.

Mamlakat ichki bozorining hajmi, uning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, shuningdek mamlakatning xalqaro ishlab chiqarishda qatnashuvining roli

iqtisodiyot ochiqligi darajasi va xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi darajasiga ta'sir qiluvchi omillardir.

Ayrim iqtisodchilar quyidagi qonuniyatni alohida ta'kidlaydilar: iqtisodiyot strukturasi asos sohalari (energetika, metallurgiya, tog'-kon va b.) ulushi qancha ko'p bo'lsa, mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida ishtiroki, iqtisodiyotning ochiqligi shuncha kam bo'ladi. Amerika iqtisodchilari J.Saks va E.Uornerlarning fikricha milliy iqtisodiyotning ochiqlik darajasi mamlakatda "haddan tashqari katta" eksport va import bojlarining yo'qligi, milliy valyutaning "yetarli darajadagi" konvertatsiyasi mavjudligi bilan aniqlanadi, shuningdek "davlat sotsialistik bo'lmasligi kerak".

1974 - yilda professor A. Errero rahbarligi argentinalik olimlar guruhi global taraqqiyot modeli ustida ish olib borib, yangi natijalar olishga erishdilar. "Tinchlik-3" modeli muhokamasida insoniyat jamiyatining garmonik rivojlanishi uchun turli mamlakatlarda boyliklarning notekis taqsimlanganligi asosiy to'siq bo'layotganligi aytilgan edi. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi ochlik, savodsizlik va yomon maishiy sharoitlarda yashayotgan edi. Bu holat modeli tabiiy resurslardan beayov foydalanish atrof-muhitning ifloslanishi kabi muammolar bilan bog'lanmagan edi.

Errero modelida insoniyat jamiyatining yaxlit rivojlanishi uchun nafaqat moddiy ta'minotni oshirish, balki munosib hayot sharoitlarini yaratish talab etiladi. Buning ma'nosi, yetarli tibbiy xizmat, ta'lim, oziq-ovqat va uy-joy bilan ta'minlanganlik tushuniladi.

Tadqiqotlarni o'tkazish uchun dunyoni 4 ta o'zaro bog'liq mintaqalardan iborat sistema deb qaraladi.

Bu mintaqalar sifatida;

- 1) Afrika
- 2) Lotin Amerikasi
- 3) Osiyo va Okeaniya
- 4) Rivojlanmagan mamlakatlar olingan.

Modelda mintaqalarning o‘zaro aloqasi sifatida xalqaro savdo va insonparvarlik yordami qaraladi. Har bir mintaqaning mintaqaning rivojlanishi 5 ta; iqtisodiyot, aholi soni, uy-joy qurilishi, urbanizatsiya, ta’lim, oziq-ovqat o‘zgarishlarini ifodalovchi o‘zaro bog‘liq sistemalar orqali ifodalanadi. Xususan, qurolsizlanish natijasida munosib turmush tarziga erishish uchun zarur bulgan ulkan imkoniyatlar ochildi. Tadqiqot 2 ta ssenariyni tekshirish bilan chegaralanadi. Bu loyiha bir qator ijobiy elementlarga ega. Bu jarayonni boshqarish imkoniyati, optimallashtirish moslashishining quyilishi kabilar.

Yaponlarning “Taraqqiyotga yangicha kirish” loyihasi. Global taraqqiyot muammosi bo‘yicha professor Ya. Kaya rahbarligida ishlab chiqarilgan ushbu loyiha ancha mashhur bo‘lib ketdi. Ular dunyo miqyosdagi global muommolar qatoriga oziq-ovqat tanqisligi, rivojlangan mamlakatlarning ko‘pchiligida ishlab chiqarishning past darajada ekanligi, ishsizlik kabilarni kiritadi. Global taraqqiyot modeli asosida dunyo iqtisodining o‘shishini ta’minlash maqsad qilib quyilgan. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti qishloq xo‘jalik va xom ashyo qazib olishga asoslangan.

Modelda sanoatning ishlab chiqarishnig o‘shishi bilan samaradorlik pasaymaydigan sohalarini rivojlantirish eng maqbul strategiya deb hisoblanadi. Bu loyihada dunyo mamlakatlari 9 ta mintaqaga ajratiladi.

Har bir mintaqaning rivojlanish dinamikasi 3 ta o‘zaro bog‘liq qism modellar orqali taviflanadi; ishlab chiqarish, iste’mol, aholi soni. Modelda ikkita ssenariy qaraladi:

- A-ssenariy bo‘yicha aholi jon boshiga to‘gri keladigan yalpi mahsulotni maksimal oshirish;
- B-ssenariy rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini optimal rivojlantirish.

Tadqiqotlar 1970-yildan 2010-yilgacha bo‘lgan davr uchun o‘tkazildi. A-ssenariyda barcha mintaqalar uchun aholi jon boshiga to‘gri kelgan yalpi mahsulotning o‘shishi ta’minlangan boshqaruv usuli topildi. Biroq bu ssenariyda rivojlangan mamlakatlar sanoatining o‘shish suratlari avvalgidek yuqori bo‘lib,

rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodi o'rtasidagi farq yanada oshdi. B- ssenariyda esa rivojlangan mamlakatlar daromadlarining pasayishi, rivojlangan mamlakatlarda esa sezilarli oshishi kuzatiladi. Shu bilan aholi daromadlaridagi farqlar saqlanib qoldi. Rivojlanayotgan mintaqalar daromadlarining oshishi barcha mintaqalar iqtisodiyotini qayta qurish hisobiga amalga oshiriladi.


Shundan kelib chiqqan ta'kidlab o'tish kerakki, hozirda ba'zi mintaqalarning iqtisodiy jihatdan ancha rivojlanganligini, boshqalarida esa aksincha holatni kuzatishimiz mumkin. Xususan Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi so'nggi yillarda ancha rivojlanib borayotganligini kuzatishimiz mumkin.

Mazkur mamlakatlar 20-asr oxiri 21-asr boshlarida o'zlarining iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshib borishdi va xalqaro maydonda o'z o'rinlariga ega bo'la boshlashdi.

1.3. Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasining umumiy tavsifi va iqtisodiy tasnifi

Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasiga Hindi-Xitoy va Malakka yarimorollari hamda Malaya arxipelagida joylashgan 10ta mamlakat kiradi. Ular II jahon urushiga qadar Buyuk Britaniya, Fransiya va Gollandiyaning mustamlakalari bo'lib kelishgan. Mazkur davlatlar 1989- yilgacha o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan. Eng oxirida esa 2002-yil 20-may kuni Sharqiy Timor mustaqil deb e'lon qilindi.

Mintaqa hududi 4,4 mln km² bo'lib, yer shari quruqlik maydoninig 3,1 % ini egallagan. Maydoniga ko'ra eng yirik davlatlari: Indoneziya (1,9 mln km²), boshqa davlatlarning birortasining maydoni 677 ming km² dan (Myanma) katta emas. Maydoning kattaligiga ko'ra eng kichkinasi Singapur (0,6 ming yoki 620 km²) bo'lib, uning maydoni Moskva shahari maydonining 2/3 qismiga teng. Singapur maydonining uzunligi 42 km, eni 22 kmni tashkil etadi. Singapurdan tashqari Bruney (6000 km²), Sharqiy Timor (15 ming km²) kabi kichik davlatlar ham joylashgan.



Manba: www.google.com/ASEAN countries' map

1.3.1-rasm. Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari

Iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi avvalo mintaqaning barcha mamlakatlarini (Laosdan tashqari) dengiz bo'yida joylashganligi;

- mintqa mamlakatlarining bir-biriga qo'shni joylashganligi;
- muhim dengiz yo'lari boyida joylashganligi (masalan Singapur ham Sharqiy, ham G'arbiy darvoza deb hisoblanadi).

Janubi-Sharqiy Osiyo iqlimiy jihatidan ekvatorial va subekvatorial mintaqalarda joylashganligi uchun yog'in-sochin mo'l. Shuning uchun o'simliklarga ayniqsa o'rmonlarga boy. Indoneziya va Filippin orollari birinchi darajali seysmik mintaqaga kirganligi uchun tez-tez kuchli zilzilalar bo'lib turadi (masalan, 2004-yil 26-dekabrdagi sunamida 300 ming odam halok bo'ldi) va harakatdagi vulqonlar ham anchagina (Apo, Karakatau, Slamet, Kerinchi).

Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi foydali qazilmalarga boyligi ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Ayniqsa, qalay, neft-gaz, volfram, nikel, xrom kabilar serob. Masalan: dunyoda xrom qazib olish bo'yicha Filippin 5-o'rinda, nikel qazib olish boyicha Indoneziya 5-o'rinda, Filippin 7-o'rinda, mis qazib olish boyicha Filippin 8-o'rinda

turadi. Malakka yarim oroli yerning qalay belbog'i nomini olgan bo'lib, bu yerda yer sharidagi eng yirik qalay zahirasi joylashgan. Bruneý sultonligi OPEK ga a'zo, Indoneziya esa kuzatuvchi⁵.

Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining boshqarilish shakli va davlat tuzumi xilma-xil. Masalan: Vetnam, Laos, Myanma, Indoneziya, Filippin, Singapur kabi davlatlar respublika, Bruneý, Malayziya, Kambodja, Tailand kabi davlatlar monarxiya shaklida boshqariladi. Myanma va Malayziya federativ davlat tuzilishiga ega.

1.3.1-jadval

ASEAN mamlakatlari (aholi soni, YaIM va aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIMsi, 2014-yil)

№	Mamlakatlar	Aholisi (mln. kishi)		YaIM (mln. AQSH dollarida)		Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM (mln. AQSH dollarida)	
	ASEAN	712.65	100.0	2,305,542	100.0	3,745	100.0
1.	Indoneziya	244.47	39.7	878,198	38.1	3,592	95.9
2.	Tailand	64.38	10.5	365,564	15.9	5,678	151.6
3.	Malayziya	29.46	4.8	303,527	13.2	10,304	275.1
4.	Singapur	6.9	0.9	276,520	12.0	51,162	1,366.1
5.	Filippin	95.80	15.6	250,436	10.9	2,614	69.8
6.	Vetnam	90.39	14.7	138,071	6.0	1,528	40.8
7.	Myanma	60.67	10.3	53,140	2.3	835	22.3
8.	Bruneý	0.40	0.1	16,628	0.7	41,703	1,113.5
9.	Kambodja	15.25	2.5	14,241	0.6	934	24.9
10.	Laos	6.38	1.0	9,217	0.4	1,446	38.6

Manba: Xalqaro valyuta fondi, www.imf.org ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Yoshlar salmog'i eng yuqori (43-44 %) bo'lgan mamlakatlar: Kambodja, Laos; eng kam bo'lgan mamlakatlar: Singapur, Tailand (21-23%). Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari aholisining o'rtacha zichligi har km² ga 122 kishi bo'lgani holatda, Vetnam, Tailand, Filippinda 200 kishidan ortiq, Laos, Kambodja, Bruneýda 35-40 kishi. Yava yarimorolida 2000 kishi va Singapurda 6653 kishini

⁵ eduportal.uz/ebooks/geografiya9/260.html

tashkil etadi. Ko‘pchilik davlatlari ko‘p millatlidir. Masalan: Indoneziyada 150 dan ortiq, Vetnamda 50 dan ortiq, Myanma va Tailandda 30 dan ortiq millat vakillari yashaydi. Urbanizatsiya darajasi Singapurda 100 %, qolgan barcha mamlakatlarda 40 % ga ham yetmaydi. Millioner shaharlari jami 15 ta bo‘lib, ular ichida eng yirigi Jakarta (9 mln) hisoblanadi. Hindi-Xitoy aholisi asosan buddizmga, Malaya arxipelagi aholisi islom diniga e‘tiqod qiladi. Dunyoda musulmonlar soni eng ko‘p bo‘lgan davlat sifatida Indoneziyani ko‘rsatib o‘tish mumkin⁶.

Xo‘jaligi XX asrning 70-yillariga qadar Janubi-Sharqiy Osiyo jahonning eng qoloq o‘lkalaridan bo‘lib kelgan. Shu yillardan keyin ichki iqtisodiy rivojlanish, tabiiy resurslar (tog‘-kon) va chet el investitsiyalari omillari ta‘sirida mintaqa mamlakatlarida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi.

Hozirda mintaqa mamlakatlari sanoatining rivojlanishiga ko‘ra 4 guruhga bo‘linadi:

1. Yangi sanoatlashgan “Osiyo yo‘lbarzlari” davlatlari: Janubiy Koreya, Singapur, Tailand va Malayziya. Bu mamlakatlarda yapon kapitali ta‘sirida va mahalliy ishbilarmonlar faoliyati tufayli “iqtisodiy mo‘jiza”lar ro‘y bermoqda. Masalan: Singapur dunyodagi eng yirik savdo markazi, moliyaviy markaz, turizm markazi, industrial markaz (neftni qayta ishlash, kemasozlik, elektrotexnika) larga aylanib bormoqda. Malayziyada kondensiyonlar, elektro va radio texnikalar, avtomashinalar va boshqa rezina buyumlar, maishiy texnika buyumlari, rangli metallurgiya sanoati; Tailandda tabiiy kauchuk buyumlari, rangli metallurgiya sanoati, mashinasozlik, yengil sanoat rivojlanib bormoqda.

2. Neft-gaz sanoati rivojlangan davlatlar: Indoneziya va Bruney sultonligi.

Indoneziya yiliga 65 mln. tonnadan ortiq neft qazib oladi, 30 mlrd m³ dan ortiq tabiiy gaz qazib oladi. Asosiy sanoat tarmoqlari: neftni qayta ishlash, neft - kimyo, tikuvchilik va to‘qimachilik, qorametallurgiya sanoati, kauchuk va o‘rmon sanoatlari. Eng yirik sanoat markazlari: Jakarta, Surabaya, Medan, Padang, Bandung shaharlarida joylashgan.

⁶ uz.wikipedia.org/wiki/turkum:janubiy-sharqiy_osiyo

Bruney sultonligida sanoat tarmoqlari rivojlanmagan bo'lib, u yerda qazib olinayotgan neft (yiliga 8-10 mln. tonna) va tabiiy gaz (10-13 mlrd m³) xom holatida eksportga chiqariladi.

3. Industrlashtirish yo'lidan borayotgan davlatlar. Bu guruhda Vetnam alohida ajralib turadi. Mamlakatda qorametallurgiya, mashinasozlik, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoatlari rivojlanib borayotgan bo'lsada, xo'jalikda oziq-ovqat va yengil sanoat yetakchidir. Yirik sanoat markazlari Xanoy va Xoshiminda joylashgan. Myanmada asosan sellyuloza – qog'oz sanoati, to'qimachilik, oziq-ovqat va rangli metallurgiya sanoatlari rivojlanmoqda. Yirik sanoat markazi Yangon shahrida joylashgan.

Filippinda asosan tog'-kon sanoati (mis, xrom, temir, alyuminiy), yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlanib bormoqda. Eng yirik sanoat markazlari: Manila va Sebu shaharlari.

4. Sanoati juda sust rivojlangan davlatlar: Laos va Kambodja. Ularda asosan hunarmandchilik, zargarlik va qo'lda buyumlar yasash (savat, bosh kiyimlari). Bruney va Sharqiy Timorda zamonaviy sanoat yo'q. Janubi-Sharqiy Osiyoda oziq-ovqat sanoati muhim o'rin tutadi. Dunyo bo'yicha kokos yog'i ishlab chiqarish va uni eksport qilishda mazkur mintaqa yetakchi bo'lib, bu sohada Indoneziya, Malayziya, Tailand davlatlari yetakchi. Choy sanoati Indoneziya, Malayziya, Vetnamda; qand-shakar sanoati Indoneziya, Malayziya, Tailand; kofe sanoati Indoneziyada; brouler xo'jaligi (akarashka) Tailand, Malayziya, Myanmada yaxshi rivojlangan.

Janubi-Sharqiy Osiyo qishloq xo'jaligi asosiy o'rnida oziq-ovqat ekinlari turadi. Bunga sabab oziq-ovqat muammosini bu mintaqada haligacha hal qilinmaganligidir. Mintaqaning musson iqlimli joylarida, Mekong, Irovadi va Xongxa daryo vodiylarida sholikorlik rivojlangan. Bu yerlarda yil boyi sholi yetishtiriladi va 2-3 marta hosil yig'ib olinadi. Indoneziyada jami ekin maydonining 2/3 qismiga, Filippinda 90% iga sholi ekiladi. Mekong va Xongxa daryolarining deltalari Vetnamning "sholi savatchasi" nomini olgan. Mintaqadagi

asosiy sholi etishtiruvchi davlatlar: Indoneziya, Tailand, Vetnam, Myanma, Filippin hisoblanadi.

Shakarqamish yetishtirish boyicha dunyoda Indoneziya 7-o'ringda turadi. Mamlakatda yiliga 25 mln. tonnadan ortiq shakarqamish yetishtiriladi. Dunyo bo'yicha yetishtiriladigan tabiiy kauchukning 85 % ini Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, avvalo Indoneziya, Tailand, Malayziya uchligi beradi. Myanma, Tailand, Laos chegarasida dunyodagi eng mashhur "oltin burchak" joylashgan.

Asosan Indoneziyada, qisman, Vetnamda kofe yetishtirish rivojlangan. Mintaqa qishloq xo'jaligida yuqoridagilardan tashqari choy, kakao, paxta, yeryong'oq, tamaki, kokos va yog'li palma yetishtirish rivojlangan. Janubi-Sharqiy Osiyoda chorvachilik sust rivojlangan bo'lib, bu tarmoqdan faqat parrandachilik (broyler) yaxshi rivojlangan. Janubi-Sharqiy Osiyo dunyo bo'yicha YaIM 2,2 % ini beradi⁷.

Temir yo'l transporti eng rivojlangan davlatlar: Indoneziya (7 ming km) va Myanma (5 ming km). Avtomobil transporti va yo'llarining uzunligi ortib uning ahamiyati oshib bormoqda. Indoneziya va Filippinda dengiz transporti rivojlangan. Mintaqadagi eng yirik dengiz porti Singapur (yiliga 115 -120 mln. tonna yuk o'tkazadi) va Bangkok (60 mln. tonna) portlaridir. Xoshimin, Jakarta, Surabaya portlari kichikroq. Havo transporti xalqaro aloqalarda muhim o'rin tutadi. Eng katta aeroporti Changi (Sing). Keyingi o'rinlarda Bangkok va Jakarta aeroportlari turadi. Janubi- Sharqiy Osiyo tabiiy va tarixiy rekreasion resurslarga boyligi uchun keyingi paytlarda xalqaro turizm va dam olish tarmoqlari rivojlanib bormoqda.

Asosiy eksporti: neft-gaz, qalay, volfram, nikel, mis, alyuminiy, xrom, radiotexnika, rezina buyumlar, elektrotexnika, kondisionerlar, sholi, kauchuk, kofe, kokos yong'og'i va yog'i, broyler, tropik mevalar, tamaki.

Asosiy importi: mashina va jihozlar, kapital, bug'doy, sanoat mahsulotlari.

Pul birligi: rupiya (Indoneziya), peso (Filippin), rentit (Malayziya), dollar (Singapur va Brunej), bat (Tailand), dong (Vetnam), riel (Kambodja), kip (Laos), kyat (Myanma).

⁷ referat.arxiv.uz/index.php.do=files&op

II BOB. JANUBIY-SHARQIY OSIYO MINTAQASI

MAMLAKATLARINING XALQARO MAYDONDA TUTGAN O'RNI, IQTISODIY RIVOJLANISHI VA UNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

2.1. Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasida “Yangi industrial mamlakatlar”ning paydo bo‘lish shart-sharoitlari va ularning iqtisodiy rivojlanish bosqichlari

XX asrning 60-80 yillarida jahonning rivojlanayotgan mamlakatlarni, shu jumladan “yangi industrial mamlakatlar”ni (YAIM) umumiy tuzilishida ham global o‘zgarishlar ro‘y berganligi bilan xarakterlanadi.

Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligidan “yangi industrial mamlakatlar” o‘z parametrlarining barcha sistemalari bo‘yicha ajralib turadi. YAIMni rivojlanayotgan mamlakatlardan farqlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, rivojlangan kapitalistik mamlakatlardan ham ajralib turishligidir. Ya’ni, ularning rivojlanishi “yangi industrial” rivojlanish modeli sifatida mavjudligidir. Bunday xarakterli tomonlar, Osiyo-Tinch okean mintaqasidagi va shuningdek Lotin Amerikasidagi YAIMning rivojlanish tajribasini chuqur analiz qilish jarayonida ko‘zga tashlangan edi.

Lotin Amerikasidagi YaIMlarning rivojlanish tajribasi va shuningdek Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi YaIMlarning ko‘pchiligi ozodlikka erishgan jahonning rivojlanayotgan mamlakatlari uchun xalq xo‘jaligining ichki rivojlanish dinamikasi bo‘yicha ham, tashqi iqtisodiy munosabatlarning ekspansiyasi bo‘yicha ham rivojlanishning o‘ziga xos namunasidir. Odatda, rivojlanayotgan “Yangi industrial mamlakatlar” qatoriga Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur, Malayziya shu bilan bir qatorda Lotin Amerikasidagi Argentina, Braziliya, Meksika kabi mamlakatlar taaluqlidir. Yuqorida qayd etib o‘tilgan barcha mamlakatlar YaIMlarning birinchi avlodlari yoki birinchi qaldirg‘ochlari hisoblanadi. Ularning orqasida “YaIM”ning so‘nggi avlodlari (Filippin va Xitoyning janubiy chegaralari) yetishib chiqmoqda⁸.

⁸ moodle.samtuit.uz/.../0/.../25%206o6.docx

BMT tomonidan ishlab chiqilgan metodika bo'yicha YaIM qatoriga kiruvchi mamlakatlar u yoki bu mezonlar bo'yicha alohida ajralib turadi. Ular quyidagilardan iboratdir:

- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotlarning miqdori.
- yalpi ichki mahsulotning o'rtacha yillik o'sish sur'ati.
- yalpi ichki mahsulot tarkibidagi qayta ishlash sanoatining umumiy miqdori. (20% atrofida bo'lishi kerak).
- chiqariladigan tovarlarning umumiy miqdoriga nisbatan sanoat mahsulotlarining ulushi va eksport miqdori.
- xorijiy mamlakatlarga chiqariladigan to'g'ridan – to'g'ri yo'naltirilgan investisiyalarning umumiy miqdori va h.k. lar.

2.1.1-jadval

ASEAN mamlakatlarining 2019-yilda iqtisodiy o'sishi bo'yicha taxminlar (Xalqaro valyuta fondi)

№	Mamlakatlar	Aholisi (mln. kishi)	YaIM (mln. AQSH dollarida)	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM (mln. AQSH dollarida)
	DUNYO	7,450.00	97,598,942	13,100
	AQSh	331.39	21,101,368	63,676
	Yevropa Ittifoqi	509.25	19,754,593	38,800
	Xitoy	1,394.88	14,941,148	10,711
	Yaponiya	125.42	5,930,147	47,281
	ASEAN	670.71	3,751,171	5,593
	Koreya Respublikasi	51.42	1,729,880	33,644
1.	Indoneziya	266.15	1,251,875	4,638
2.	Malayziya	32.59	538,028	16,417
3.	Filippin	107.63	522,271	4,757
4.	Tailand	65.94	491,520	7,023
5.	Singapur	5.99	378,191	65,790
6.	Vetnam	97.10	240,185	2,780
7.	Myanma	71.75	96,891	1,325
8.	Kambodja	16.19	26,392	1,614
9.	Laos	6.93	18,898	2,493
10.	Bruney	0.44	18,890	42,313

Yangi industrial mamlakatlar ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlardan ajralib turadi, balki ayrim xollarda bir qator sanoati rivojlangan mamlakatlardan ham ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha ustunlikka egadir. Masalan, Tayvan, 1952-95 yillarda aholi jon boshiga YaIM hajmini 170 marotaba o'stirgan edi (aholining o'sishiga nisbatan 2,5 marotaba ortiqroqdir). Tashqi savdo hajmini esa 544 marotabaga oshirdi. Mamlakatning inflyatsiya darajasi o'rtacha 3,6% ni, iqtisodiy o'sishning o'rtacha yillik sur'ati esa 8,7% ni tashkil etgan edi. Shunday qilib, Tayvan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoning ilg'or mamlakatlari qatoriga kiritilgan bo'lib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromad taxminan 12 ming dollarni tashkil qilgan edi.

Shunday qilib, 1960-1990 yillarda Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish sur'ati hisoblab ko'rilganda uning miqdori yiliga 5% ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin (bu ko'rsatkich Yevropa mamlakatlarida 2% ga teng bo'lgan). Ana shu yillarda, Tayvanda yillik o'sish sur'ati juda yuqori bo'lib, 8,7% ni tashkil etgan. 90-yillarda Janubiy Koreya va Singapurda yillik o'sish sur'ati 8% ni, Malayziyada esa 9% ni tashkil etgan.

Jahon iqtisodiyotida "Yangi industrial mamlakatlar"ning iqtisodiy rivojlanish sur'atining yuqoriligi aholining turmush tarzini yaxshilanib borayotganligi bilan uyg'unlashib bormoqda. 1960-90 yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromad rivojlanayotgan YAIMda 4 marotaba o'sgan edi. Xullas, xalqaro ekspertlarning bashorat qilishicha, 2010 yilga borib Sharqiy Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlarini yalpi milliy mahsulotning hajmi bo'yicha quvib o'tishi, 2020 yillarga borib esa Shimoliy Amerikadan ham o'zib ketishi bashorat qilingan edi⁹.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasining "yangi industrial mamlakatlari"dan biri Singapur haqida shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, u 1995-yilda Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari ichida birinchi bo'lib "industrial rivojlangan mamlakat" maqomini qo'lga kiritgan edi. Bunday unvon unga Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish

⁹ el.tfi.uz/pdf/milliy%20va%20jaxon%20iqsodiyoti

Tashkiloti (IHRT) tomonidan rasman e'lon qilindi. Singapur o'zining barqaror iqtisodiy o'sishining 3 yilligi davomida nisbatan past rivojlangan 10 ta rivojlanayotgan mamlakatlar doirasidan ajralib chiqib, dunyoning boy rivojlangan davlatlari qatoridan joy oldi (aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hisobiga).

Siyosiy barqarorlik sharoitida mamlakatning sanoat ishlab chiqarishi yiliga o'rtacha 8,4% ni tashkil etgan bo'lib, mamlakatdagi aholining har biri o'zining yashash darajasini o'rtacha yetti marotabaga orttirgan edi. Singapurdagi har bir aholining o'rtacha daromadi 1995-yilda 22,3 dollarni tashkil etdi. O'z navbatida Gonkong ham Buyuk Britaniyaning sobiq koloniyasi bo'lib, keyinchalik u ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni ko'pchiligi bo'yicha o'zining metropoliyali darajasidan yuqori pog'onaga ko'tarilgan edi.

Jahon iqtisodiyotida "yangi industrial mamlakatlar"ning iqtisodiy rivojlanish modeli va uning muvaffaqiyatli rivojlanish tomonlari qarab chiqilganda, uning tashqi va ichki omillari xususida ham to'xtalib o'tiladi. Ko'rinib turibdiki, omillarning bu ikki guruhlarini YAIMlarning hukumatlari tomonidan olib borilayotgan nozik, maqsadli siyosatlar orqali to'ldirib turiladi. "YaIM"larning ichki tuzilishidagi muammolarga, hamda ularning xo'jalik mexanizmlariga asosiy e'tiborni qaratmasdan turib, "YaIM"larni tashqi iqtisodiy rivojlanish omillarining o'ziga xos tomonlarini ochib berib bo'lmaydi.

Jahon mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanish jarayonlari shuni ko'rsatmoqdaki, jahonning u yoki bu mamlakatlari xalqaro iqtisodiy hamkorlikka faol kirishayotganda asosiy ishni xorijiy investisiyalarni jalb etish hamda tashqi savdning o'sishiga zaruriy bo'lib hisoblanadigan shart-sharoitlarni yaratishdan boshlaydi. Shunday ekan, bu mamlakatlar o'z iqtisodiy rivojlanishlari doirasida texnologik ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlaridan keng foydalangan holda tarkibiy qayta qurilishlarga, ishlab chiqarishda tayyor xom – ashyolardan texnologik sig'imi yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga o'ta boshlaydi. Ishlab chiqarishda xo'jalik tarmoqlarni rivojlantirish va qayta ta'mirlash

uchun eksportdan tushgan daromadlardan keng foydalanish xalqaro mehnat taqsimoti ko‘lamida ancha istiqbolli va “foydali” usul bo‘lib hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida AQSh, Germaniya, Yaponiya kabi bir qator yetakchi sanoati rivojlangan mamlakatlar xuddi mana shu yo‘llar orqali taraqqiy etgan edi. AQSh o‘z iqtisodiy faoliyatini dastlabki yillarida asosan xom-ashyo, mevalar, paxta, asal, ko‘mir va shunga o‘xshash bir qator xo‘jalik mahsulotlarini eksport qilishdan boshlagan bo‘lsa, GFR, 50- yillarda ko‘mir, qora metallurgiya, kimyoviy sanoat mahsulotlarni eksport qilishdan, Yaponiya esa to‘qimachilik, metallurgiya, kimyoviy sanoat mahsulotlarni eksport qilishdan boshlagan edi.

XX asrning 60-yillarida Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi bir qator mamlakatlar, ya’ni, “YaIM”lar ham xuddi ana shu yo‘llar orqali rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ygan edi. Ushbu davlatlarning barchasi iqtisodiy o‘shishning tashqi omillaridan samarali foydalandilar. Shu o‘rinda, sanoati rivojlangan mamlakatlardan xorijiy sarmoyalar, texnika va texnologiyalarni keng miqyosda jalb qilinganligini ta’kidlab o‘tish lozimdir. Ma’lumki, bir qator sabablarga ko‘ra, “yangi industrial mamlakatlar” ning ba’zi birlari sanoati rivojlangan yetakchi mamlakatlarning muhim siyosiy va iqtisodiy manfaatlari ta’sir doirasiga tushib qolganligini ko‘rishimiz mumkin. AQShning siyosiy manfaatlari asosan Sharqiy Osiyo mamlakatlarining “kommunistik ta’siriga” qarshi turuvchi Tayvan va Janubiy Koreyaning siyosiy manfaatlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan edi¹⁰.

Shuning uchun ham ushbu mamlakatlarga cheksiz iqtisodiy yordamlar uyushtirilib - harbiy jihatdan qo‘llab quvvatlandi (masalan, Tayvanga 1,5 mlrd. dollar miqdorida yordam ko‘rsatilgan). 1950-1965 yillarda AQShning yordami Tayvanda jalb etilgan jami investisiyalarning 34% ini tashkil etgan bo‘lib, uning 74%i infrastrukturaga, 59%i qishloq xo‘jaligiga va 13%i sanoat ishlab chiqarishiga jalb etilgan edi.

Xullas, bularning barchasi Tayvan iqtisodiyotining rivojlanishida tashlangan ijobiy qadam bo‘ldi. Jahon iqtisodiyotida “YaIM”larni zamonaviy iqtisodiy tarkibining shakllanishida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan investisiyalarning ta’sir

¹⁰ armat.uz/getfile.php?type.ek&cat.pdtk&attachment.mjg

doirasi ham katta bo'lmoqda. 80-yillarning birinchi yarmida "YaIM"larni iqtisodiyotdagi to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investisiyalarning miqdori, rivojlanayotgan mamlakatlardagi to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan sarmoya quyilmalarining 42% iga yetgan edi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar orasida AQSh "yangi industrial mamlakatlar" dagi ishbilarmonlik sarmoyalarining eng ko'zga ko'ringan investori bo'lib hisoblanadi. Ulardagi to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investisiyalarning o'sishi, xorijiy mamlakatlardagi xuddi shunday investisiyalar umumiy miqdorining 10% ini tashkil etadi. Yaponiya hozirgi kunda "YaIM"dagi to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investisiyalarning miqdori bo'yicha jahon mamlakatlari ichida yuqori o'rinlarda turadi.

Yaponiya investisiyalari "YaIM"larning industriallashuviga va ularning eksport tovarlarining raqobatbardoshligini oshirishga imkoniyat yaratib, "YaIM"lar sanoatida qayta ishlanadigan mahsulotlarning yirik eksportyorlaridan biriga aylanishida muhim rol o'ynamoqda. Yaponiya investitsiyalarini kirib kelishi birgina 1982-1985 yillarning o'zida Tayvanda 2,1 martaga, Gonkongda 61% ga o'sgan edi.

Yaponiya sarmoyalarining ishtirokida, ushbu mamlakatlarda yuqori sifatli tayyor mahsulotlarning ekportyorlari bo'lib qolishiga imkon beruvchi yirik ishlab chiqarish bazasi tashkil etildi. 80-yillarning boshlarida Yaponiya investisiyalari umumiy miqdorining yarmisidan ko'prog'ini tashkil etgan edi. Xullas, yapon investorlari ishtirokida "YaIM"larda zamonaviy texnikalar, elektronika jihozlari, dengiz kemalari va boshqalarni ishlab chiqarish bo'yicha komplekslar barpo etilgan edi¹¹.

Jahon iqtisodiyotida Osiyoning "YaIM"lari uchun shu narsa xarakterli bo'ldiki, ulardagi tadbirkorlik sarmoyalari, birinchi galda qayta ishlash sanoati va xom-ashyo tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirildi. O'z navbatida, Lotin Amerikasining "YaIM"laridagi ishbilarmonlik sarmoyalari esa, ko'proq savdo, xizmat ko'rsatish sohalari va qayta ishlash sanoat tarmoqlariga jalb etilgan edi.

¹¹ uz.denemetr.com/docs/.../index-76097-1.html.

Xullas, jahon iqtisodiyotida xorijiy sarmoyalarning keng miqyosda tarqalishi shu narsaga olib keldiki, “YaIM”larda xorijiy sarmoyalar ishtirok etmagan birorta ham iqtisodiy tarmoq qolmagan edi. 1998 yilda Lotin Amerikasi va Sharqiy Osiyoning “YaIM”larining bozorlaridagi quyilmalarining daromadlilik darajasi (% hisobida) quyidagicha xarakterda bo‘lgan edi: Argentinada 58% ni, Braziliyada 83% ni, Meksikada 40% ni, Chilida 39% ni, Indoneziyada 79% ni, Janubiy Koreyada 26% ni, Tayvanda 104% ni, Tailandda 121% ni, Filippinda 165% ni tashkil etgan edi.

Ko‘rinib turibdiki, Sharqiy Osiyoning “YaIM”laridagi investisiyalarning daromadlilik darajasi Lotin Amerikasi mamlakatlarinikidan sezilarli darajada yuqoriroq bo‘lgan. Qonuniy shunday savol tug‘iladi, xo‘sh, nima uchun xorijiy mamlakatlarning xususiy sarmoyalarning barchasi Sharqiy Osiyo mintaqasidagi ba’zi bir mamlakatlarga nisbatan faolroq kirib boradi? Ma’lumki, 60-yillarning oxirlarida, jahon xo‘jaligini rivojlanishidagi vaziyat shu qadar murakkablashgan ediki, natijada transmilliy korporatsiyalarning rivojlanish manfaatlari va strategiyalari Sharqiy Osiyodagi bir qator rivojlanayotgan davlatlarning imkoniyatlari va intilishlari bilan moslashib borgan edi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar importidagi turli xildagi cheklashlar va ularning uncha katta bo‘lmagan to‘lov qobiliyatiga duch kelayotgan transmilliy korporatsiyalar, joylarda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish maqsadida o‘z sarmoyalarni chetga chiqarish orqali tovarlar eksportini qisman yangilash tomon qadam qo‘ya boshladi. Transmilliy korporatsiyalarning xuddi ana shu yo‘nalishlaridagi faoliyati, rivojlangan mamlakatlarning to‘yingan bozorlarining konyukturasi, raqobatni avj oldirish va ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish uchun kurashish orqali amalga oshirilmoqda.

Transmilliy korporatsiyalar, o‘zlari faoliyat ko‘rsatayotgan joylarda ishlab chiqarishni ilmiy asosda rivojlantirishga e’tiborni qaratadi. Xarakterli tomoni shundaki, jahon iqtisodiyotida “Osiyo ajdarhosi” deb nom olgan xalqaro iqtisodiy konyukturalarining bunday o‘zgarishlarni qabul qilishga va ulardan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanishga tayyor ekanligi ma’lum bo‘ldi. Transmilliy korporatsiyalarni, aynan Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga jalb qilishida quyidagi

shar-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etgan edi. Birinchidan, “Yangi industrial mamlakatlar” ning foydali geografik qulay joylashganligi.

Ularning barchasi dunyo savdo iqtisodiy yo‘llarining chorrahasida, ya’ni jahon xo‘jaligi markazlari bo‘lmish – AQSh va Yaponiyaga yaqinroq hududlarda joylashganligi. Ikkinchidan, “Yangi industrial mamlakatlar” ning barchasida sanoati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan munosib hisoblangan avtokratik yoki shunga yaqin bo‘lgan siyosiy muhitlar yaratilganligi. Ularda siyosiy barqarorlik ta’minlanib, siyosiy hamda demokratik o‘zgarishlar, iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Xorijiy investorlarning xavfsizligi uchun yuqori darajali kafolatlar ta’minlandi.

Osiyodagi “yangi industrial mamlakatlar” aholisiga xos bo‘lgan mehnatsevarlik, intiluvchanlik, tejamkorlik singari noiqtisodiy omillar ham katta ahamiyat kasb etdi. Bu omillar ma’lum darajada Osiyo-Tinch okeani va Lotin Amerikasidagi –“YaIM”larning ikki modeli o‘rtasidagi o‘ziga xos bo‘lgan bellashuvda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Jahon iqtisodiyotida birinchi model milliy iqtisodiyotning tashqi bozor va eksportga tomon ustuvor yo‘nalishlari orqali rivojlanishini ko‘rsatib bersa, ikkinchi model esa import o‘rnini egallashga qaratilganligidir¹².

Birinchi modelda ko‘rsatib o‘tilganidek, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida AQSh, ikkinchi jahon urushidan keyin – G‘arbiy Yevropa davlatlari va Yaponiya, keyinchalik esa Osiyo-Tinch okeani mintaqasining “YAIM”lari ham rivojlanishning birinchi modeli yo‘lidan borishdi. Ikkinchi model esa sezilarli darajada Lotin Amerikasining “YaIM”lari tomonidan o‘zlashtirib olingan edi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi kunda import o‘rnini egallashga qaratilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish strategiyalari bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarning taraqqiyotida muhim rol o‘ynamoqda. Import o‘rnini egallash strategiyalari xo‘jalik tarkibining xilma-xilligini ta’minlash imkoniyatini yaratadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligida esa yangi va muhim bo‘lib hisoblanuvchi bir qator ishlab chiqarish tarmoqlari barpo etilishi

¹² eduportal.uz/ebooks/geografiya9/640.html

bilan bir qatorda muhim yo‘nalishlar bo‘yicha o‘z - o‘zini ta‘minlash darajasi ham o‘sib bormoqda.

Shuningdek, iqtisodiyotni tubdan isloh qilishda asosiy yo‘l bo‘lib hisoblanuvchi import o‘rnini egallashga mo‘ljallangan ishlab chiqarish sohalarni rivojlantirishni asosiy o‘ringa qo‘yuvchi barcha mamlakatlarda o‘z-o‘zidan jiddiy inqirozlar bo‘lib turibdi. Gap shundaki, xorijiy kompaniyalar uchun imtiyozli kreditlarni yo‘qligi va proteksionizm siyosatiga asoslangan milliy iqtisodiyotning faoliyat ko‘rsatishini “qo‘llab-quvvatlab turganlik” muhiti jahon iqtisodiyotida tez moslashuvchan va samarali iqtisodiy tizimning vujudga kelishiga yo‘l qo‘ymaydi. Umuman olganda, import o‘rnini egallash siyosati, rivojlanayotgan mamlakatlar faoliyatining dunyo xo‘jaligida tub o‘zgarishlar yasashiga yo‘l qo‘ymaydi.

Bundan tashqari, import o‘rnini egallash siyosati nafaqat tashqi omillarni pasayishiga yo‘l qo‘ymaydi, balki uning o‘sishini ham ta‘minlaydi. Import o‘rnini egallash prinsiplariga uzoq vaqt tayanilganda, mamlakatlarda qoloqlikni bartaraf etish imkoniyati paydo bo‘ladi hamda keng miqyosidagi taraqqiyotga erishishni ta‘minlovchi iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarni vujudga kelishiga xalaqit beruvchi barcha to‘siqlarga barham beriladi.

Proteksionizm, ichki bozorlarni va biznesni himoya qilish choralari sifatida qisman samarasiz ishlayotganiga qaramasdan, uning monopol holati va baholarining keskin o‘sayotganligidan foydalanib foyda olayotgan mahalliy korxonalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Xullas, hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida import o‘rnini egallash davri bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda, shu jumladan “yangi industrial davlatlar”da ham o‘z nihoyasiga yetganligini ko‘rishimiz mumkin. Jahon iqtisodiyotida import o‘rnini egallash strategiyasi Lotin Amerikasining “YaIM”lari (Braziliya, Argentina, Meksika) uchun xilma-xil milliy iqtisodiyotni barpo etishda va shuningdek bir qator tovarlarni ishlab chiqarish bo‘yicha jahonda salmoqli o‘rinni egallab kelishida muhim rolni o‘ynamoqda. Nima bo‘lganda ham ushbu mamlakatlar sanoati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan qoloqlik darajasini bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitni yarata olmadilar. Shuning uchun

ham Lotin Amerikasining “YaIM”lari qanchalik kuchayib, iqtisodiy potensialga ega bo‘lishlariga qaramasdan, Osiyodagi “YaIM”larga nisbatan iqtisodiy jihatdan ancha qoloqligicha qolmoqda. Masalan, Braziliyaning yalpi ichki mahsuloti Sharqiy Osiyodagi “yangi industrial mamlakatlar” ning umumiy yalpi ichki mahsulotiga nisbatan biroz kamroqdir.

Jahon iqtisodiyotida Lotin Amerikasining yangi industrial mamlakatlari 90-yillarning o‘rtalariga kelib 80-yillardagi uzoq davom etgan inqirozidan chiqib oldi. Braziliya, Chili, Argentina kabi davlatlarda amalga oshirilgan liberal iqtisodiy o‘sish sur‘atlari yuksalib, savdo balansini yaxshilashda ijobiy yutuqlar qo‘lga kiritildi. Lotin Amerikasining yirik, “YaIM”laridan biri Braziliyada olib borilayotgan siyosat - ochiq iqtisodiyotni yaratishga qaratilganligidir. Buning uchun mamlakatning ichki bozorlarida raqobat kurashuvi uchun muhit yaratilayotgan bo‘lib, unga bog‘lik holda import tariflari pasaytirildi. 1995 yilda MERKOSUR mamlakatlari (Braziliya, Argentina, Paragvay va Urugvay) o‘rtasidagi bojxona to‘siqlari to‘liq olib tashlandi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi “yangi industrial mamlakatlar” o‘z iqtisodiyotining eksportga mo‘ljallangan ancha samarali va tez moslashuvchan modelini joriy etdi. Bu model, ma’lum davr mobaynida bir vaqtning o‘zida import o‘rnini egallash siyosatini ham o‘z ichiga olgan edi. Eksport siyosati o‘rnini egallashga mo‘ljallangan industriallashuvning tugallangan davrini qayta sodir etishni talab etmaydi.

Ma’lumki, jahon iqtisodiyotida import o‘rnini egallash va eksportga mo‘ljallangan iqtisodiy siyosat bir–biri bilan tengma–teng holda harakat qilib, ba’zi davrlarda esa ular bir–biridan ustunlikka ham ega bo‘lishi mumkin. Eksportni kengaytirish davriga yoppasiga o‘tish oldidan, import o‘rnini egallash uchun jahon mamlakatlari ishlab chiqarishining zamonaviy tizimlarini vujudga keltirish, xalq xo‘jaligini an’anaviy sektorini qayta qurish kabi masalalarga ham e’tiborni qaratishmoqda.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasining ko‘pchilik mamlakatlarida (50 va 60-yillarda Janubiy Koreyada, Tayvanda, 60-yillarda Malayziyada, 60 va 70-

yillarning boshlarida Tailandda, 50 va 60- yillarning oxirida Filippinda) import o'rnini egallash siyosati ustuvor bo'lgan edi. Gonkong va ma'lum darajada Singapur o'zlarining tarixiy rivojlanish shart-sharoitlari, geografik joylashuvi va ichki talabni cheklanganligi ta'sirida ishlab chiqarishni ko'proq eksportga qaratdilar.

Jahon xo'jaligida ko'rilgan mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi chora tadbirlar, qayta ishlash sanoatidagi foyda me'yorini oshirish, iste'mol mahsulotlarini va shuningdek uzoq muddatli foydalanishga mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning asta sekinlik bilan import o'rnini egallashiga sabab bo'lmoqda.

1960-80 yillarda Janubiy Koreya jahon bozoriga xuddi shu mahsulotlarning 2,9% ni, 3,4% ni, 9,6% ni, 9,3% ni, 11,1% ni va 9,6% ni yetkazib bergan bo'lib, uning jahon kemasozlik sanoati eksportidagi ulushi 13,1% ga to'g'ri kelgan edi¹³.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasining "yangi industrial davlatlari" sanoat mahsulotlari eksportining yuqori dinamikasiga asoslangan holda an'anaviy ayrim tovarlar eksporti bo'yicha tashqi savdo aylanmasida hal qiluvchi o'rinni egallagan edi. Masalan, Janubiy Koreya va Tayvan eksportida xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi mos ravishda 7,1% va 7% ni tashkil etgan edi. Xullas, 90-yillarda Janubiy Koreyada tovarlar eksportida qiymati bo'yicha ikkinchi o'rinni poyafzal mahsulotlari egallagan bo'lsa, Tayvanda esa o'yinchoqlar va sport tovarlari egallagan edi. Janubiy Koreya eksportida to'rtinchi o'rinni sintetik mahsulotlardan tayyorlangan tekstil tovarlari turgan bo'lsa, Tayvanda esa yettinchi o'rinda poyafzal mahsulotlari turgan edi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasining "Yangi industrial davlatlari"da ayniqsa mashina va uskunalar ishlab chiqarish bo'yicha eksportida Hindiston va shuningdek Lotin Amerikasining "YAIM"larining kuchsizlanishi sezilarlidir. Agar Lotin Amerikasining "YAIM"larini tovarlar eksportining rivojlangan davlatlar umumiy eksportidagi ulushi 1998 yilda 1980 yilga nisbatan unchalik kamaymagan (0,5%) bo'lsada, mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish bo'yicha ulushi

¹³ ucell.dum.su/tarix/11jh/29.htm

qariyb 1,8 barobarga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Aynan, shu mashina-texnik mahsulotlar eksporti rivojlangan davlatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi holatlarini yaxshilanishining eng muhim omilidir.

1990-yillarda Osiyoning “Yangi industrial davlatlari”ni olib borayotgan faol tashqi savdo siyosati AQShning Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan bo‘lgan yillik o‘zaro savdo hajmi (128,4 mlrd. doll.) G‘arbiy Yevropa bilan bo‘lgan savdo aylanmasidan (117,1 mlrd. doll.) yuqori bo‘lgan edi. Bunda Osiyoning “YaID”lari (Yaponiyani qo‘shib hisoblaganda) AQSh avtomobil va elektrontexnika asbob-uskunalar bozorining 30% ni, to‘qimachilik mahsulotlari bozorining esa 50% ni egallagan edi.

XX-XXI asrlar bo‘lag‘asida rivojlangan mamlakatlarning eng yirik kapital importyori bo‘lgan “Yangi industrial davlatlar” o‘z jo‘g‘rofiyasini ancha kengaytirgan edi. Hozirgi kunda ilg‘or sanoati rivojlangan davlatlarini kapitali uchun Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan davlatlar yangi bozorlardir. Masalan, Janubiy Koreya firmalari AQShda aniq maqsadga yunaltirilgan eksport ekspansiyasini o‘tkazmoqda. Amerika iqtisodiyotiga kapital quyishib, Janubiy Koreyaliklar o‘z iqtisodiyoti uchun eng yangi texnika-texnologiyalarni kirib kelishiga yo‘l ochmoqdalar. Shuningdek, Janubiy Koreya firmalari Osiyo-Tinch okeani mintaqasining “ajdarho”deb nom olgan boshqa davlatlariga ham kapital olib chiqishni ko‘paytirmoqda. Masalan, Tayvanning Xitoyga bo‘lgan qiziqishi juda kattadir. 90-yillar o‘rtalarida Tayvanning XXRdagi investisiyalari 9 mlrd. doll.dan oshib ketgan edi. O‘z navbatida Gongkonglik ishbiarmonlar XXRda ro‘yxatga olingan qo‘shma korxonalarning yarmidan ko‘prog‘iga egalik qilishgan.

XX asrning 50-yillarida jahon xo‘jaligida baynalminallashuv jarayonlarining tezlashishi rivojlanayotgan mamlakatlarni, birinchi navbatda “YAIM”larni ham qamrab olgan edi. Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarishni, mehnat va kapital bozorlarini va shuningdek tovar ayirboshlash jarayonlarining baynalminallashushiga moliya bozorlarining baynalminallashuvi ham qo‘shildi. “YaID”larning kredit imkoniyatini o‘sishi milliy moliyaviy bozorlarining

rivojlanishi bilan va shuningdek moliyaviy salohiyatining oshishi bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

2.1.2-jadval

ASEAN mamlakatlari aholisining yosh tarkibi (2013 yil)

Mamlakatlar	Aholisi (mln.kishi)	65 yoshdan oshgan aholi soni (% da)	Umr ko‘rish uzoqligi		Nafaqa yoshi	
			Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar
Bruneý	0,3	3,2	75	79,7	55	55
Myanma	55,4	4,9	58,9	64,8	-	-
Indoneziya	222,7	5,5	67	70,5	55	55
Laos	5,9	3,7	55,3	57,8	60	60
Malayziya	25,3	4,6	71,9	76,5	55	55
Filippin	83,0	3,9	69,5	73,8	60	60
Singapur	4,3	8,5	77,6	81,3	55	55
Tailand	64,2	7,1	68,5	75	55	55
Vetnam	84,2	5,4	69,9	73,9	60	55
Kambodja	14,0	3,4	61	65,4	-	-

Manba: www.google.com/social security programs in Asia and Pacific U.S. Social Security administration/ ma’lumotlari asosida tayyorlangan

Hozirgi kunda “yangi industirial davlatlar”ning ko‘pchiligi milliy moliyaviy bozorlarni tashkil topishining birinchi bosqichidan o‘tib, liberallashtirishning ikkinchi bosqichiga qadam qo‘ydilar. Buning natijasida ushbu davlatlarda xalqaro moliyaviy munosabatlarni integratsiyalashuviga asos yaratildi. Kapital harakatining baynalminallashish jarayonlari hatto rivojlangan davlatlar orasida ham yakunlanishidan uzoqdir. Shuning uchun ham bu haqda rivojlanayotgan davlatlar to‘g‘risida gapirmasa ham bo‘ladi. Shunga qaramasdan, ba’zi bir “yangi industirial davlatlar” (Singapur va Gonkong) bu yo‘lda sezilarli qadamlar qo‘ydilar. Bunga, 70-yillarda yangi jahon iqtisodiyotida yangi xalqaro moliyaviy markazlarning hosil bo‘lishi va tez o‘rishini kiritish mumkin.

XXI asr boshlarida Tayvan Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi yirik moliyaviy-valyuta markaziga aylanishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Hozirgi kunda Osiyoning “YAIM”lari kredit-moliya operatsiyalarini o‘tkazish darajasi bo‘yicha London, Parij, Syurix kabi yirik moliya markazlari qatoriga chiqib, ularni ssuda kapitali bozoridan asta-sekin siqib chiqarmoqda.

Osiyo-Tinch Okeani mintaqasini “YAIM”larini iqtisodiy evolyusiyasining xarakterli tomonlaridan biri ularning bir-biriga bo‘lgan qiziqishining tobora ortib borayotganligidir. Sanoati rivojlangan G‘arbiy Yevropa davlatlariga kapital yunaltirishning ustuvor tendensiyasi mintqa va bir-biriga yaqin bo‘lgan submintaqalarda savdo-iqtisodiy hamkorliklarni olib borishligi bilan to‘ldirilmoqda. Ammo bu Osiyoning “YAIM”larining raqobatbardoshligini oshirishga e’tibor bermayabdi degani emas. Xullas, 90-yillarning o‘rtalarida tovarlarning raqobatbardoshligi bo‘yicha jahondagi birinchi beshlikda Singapur, Gonkong, Tayvan kabi davlatlar turgan edi.

2.1.3-jadval

Osiyo va ASEAN mamlakatlari YaIMsining o‘shish ko‘rsatkichlari

Mamlakatlar	YaIM o‘shishi (2011, %da)	YaIM o‘shishi (2012, %da)	YaIM o‘shishi (2013, %da)
Bangladesh	6,1	5,9	6,4
Brunej	1,9	3,2	1,6
Kambodja	6,1	6,2	6,4
Xitoy	9,2	8,2	8,8
Gonkong	5,0	2,6	4,2
Hindiston	7,1	6,9	7,3
Indoneziya	6,5	6,1	6,6
Laos	8,3	8,4	7,1
Malayziya	5,1	4,4	4,7
Myanma	5,5	6,0	5,9
Filippin	3,7	4,2	4,7
Singapur	4,9	2,7	3,9
Tailand	0,1	5,5	7,5
Vetnam	5,9	5,6	6,3

Manba: Xalqaro valyuta fondi, www.imf.org/actual data and projections/ ma’lumotlari asosida tayyorlangan

Bu davlatlarda qabul qilingan iqtisodiy strategiyaning asosiy yo‘nalishi – ilmtalab mahsulotlar ishlab chiqarishdir. Mehnat talab va past rentabelli ishlab chiqarishlar “YAIM”larning “ikkinchi oqimida” turgan Xitoy va Vetnamga “topshirilmoqda”. Natijada bu ishlab chiqarishlarni bir paytlar sodir etgan sanoati rivojlangan davlatlardan birinchi avlod “yangi industrial davlatlar”ga ko‘chish jarayoni amalda qaytarilmoqda.

Shunday qilib, jahon iqtisodiyotida “YAIM”larni rivojlanishidagi qo‘lga kiritgan yutuqlari, jahon xo‘jaligiga integratsiyasi, iqtisodiy o‘shining istiqbollari, aholining turmush tarzini o‘shishi ushbu davlatlarning iqtisodiyotida tashqi iqtisodiy ekspansiyalarning roli yuqori darajada deyishga imkon beradi. XXI asrda ushbu davlatlar jahon iqtisodiyoti hukmronligida yuqoriroq o‘rinni egallab, yangi va muhim natijalarni namoyish etmoqda. Jahon Bankining bashorat qilishicha, yaqin 10 yillar mobaynida yillik o‘shining o‘rtacha sur‘atlari Janubiy Osiyoda 5,5% ni, Sharqiy Osiyoda 7,7% ni, Lotin Amerikasida 3,5% ni tashkil qilar ekan. 1996-2005 yillarda Sharqiy Osiyoda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadning yillik o‘shishi 6,6% ni tashkil etib, o‘rta hisobda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yillik daromad yiliga 1,9% ga o‘sgan edi¹⁴.

2.2. Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlari iqtisodiy birlashmasi-ASEANda integrasion jarayonlarining mintaq iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyati va tashkilot faoliyatining zamonaviy xususiyatlari

XIX asrning oxirda qariyb hamma Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlari Yevropa va AQSh hukumatlari mustamlakasiga aylandi. Ikkinchi jahon urushidan keyin bu mintaq xalqlari o‘z mustaqilliklarini qo‘lga kiritish boshladi. Davlatlar o‘zlarining iqtisodiy va siyosiy rivojlanish yo‘lida mintaqaviy hamkorlik ehtiyojlari 1967 yilda Janubiy Sharqiy Osiyo Davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN)ni vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Janubiy Sharqiy Osiyo Davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) 1967 yil 8 avgustda Bangkok deklaratsiyasi asosida tashkil qilindi. Bu assotsiatsiya asoschilari Indonizya, Singapur, Malayziya, Tailand va Filippin orollari bo‘lib, o‘z oldilariga quyidagi maqsadlarni qo‘yishdi: o‘zaro hamkorlik dasturi asosida mintaqaning iqtisodiy, siyosiy, madaniy rivojlanishida bir-biriga ko‘maklashish; mintaqaning siyosiy va iqtisodiy barqarorligini saqlash va himoya qilish; mintaq ichra kelishmovchiliklarda ASEAN anjuman (forum) sifatida ishlatilishi. Keyinchalik Bruney (1984 yil), Vetnam (1995 yil), Laos va Myanma (1997 yil),

¹⁴ www.tdiu.uz/ek/sharedfiles/download.aspx?pageid.77&mid.57

Kamboja (1999 yil) davlatlari ham kirdi. Maxsus kuzatuvchi statusiga Papua–Yangi Gvineya davlati ega.

Oxirgi 25 yil ichida ASEAN davlatlari iqtisodiy ko‘rsatkichlarining o‘rtacha YaIM o‘sishi 7% ni tashkil qilib kelmoqda¹⁵.

ASEAN “sovuq urush” davrida tashqil qilingan bo‘lib, sotsialistik va kapitalistik tizim qarama–qarshilik avj olgan vaqtga to‘g‘ri keldi. Bunday sharoitdagi ASEANning ijtimoiy–iqtisodiy va madaniy sohalaridagi faoliyatining samarasi kam edi. 1960 yillar oxirlari va 1970 yillar boshlarida ASEAN faoliyatini ichki kelishmovchiliklarni bartaraf etish, siyosiy muammolarni hal qilish va Assotsiatsiya faoliyatini saqlab qolishga qaratdi. 1971 yil Janubiy Sharqiy Osiyo o‘zining betarafligini e‘lon qilinishi ASEANning birinchi yutug‘i bo‘ldi.

1992 yil Singapurda ASEAN davlatlari boshliqlari navbatdagi 4–yig‘ilishini o‘tkazdi va Erkin savdo hududini hamda imtiyozli bojxona tizimini yaratish uchun bitim imzolashdi. Shuningdek, bu yig‘ilishda Bosh sekretar o‘rni va sekretariat vakolati kengaytirildi.

1997 yil oxirida Kuala–Lumpur shahrida 2–norasmiy yig‘ilishida “ASEAN 2020 - yilda” konsepsiyasini olg‘a surdi. Uning maqsadi “2020 - yilga kelib ASEAN jahon hamjamiyati integratsiyasiga mo‘ljallangan barqaror, o‘zaro hamohang va hamkorlik tashkilotiga aylantirish”. Konsepsiyaga ko‘ra 2020 yil ASEAN 21-asrning Janubiy Sharqiy Osiyoning dadil va muvafaqiyatli rivojlanayotgan davlati bo‘ladi.

1998-yil dekabr oyida ASEAN o‘zining 6–yig‘ilishini o‘tkazdi. Unda Xanoy deklaratsiyasi va dasturi ishlab chiqildi. Unda Janubiy Sharqiy Osiyodagi inqirozni bartaraf etish chora va tartiblari ishlab chiqildi.

O‘tgan yillar ichida ASEAN davlatlari yuqori iqtisodiy rivojlanish darajasiga erishib kelmoqda. Ularning YaIMning o‘sish sur‘ati dunyoning ko‘pgina mamlakatlari YaIM o‘sish darajasidan ikki barobar ko‘pdir. ASEAN izchil rivojlanib borayotgan mintaqadan biriga aylandi. ASEAN asoschilari mustaqillikka erishgach, hozirgi kunga kelib Yangi industrial mamlakatlarga

¹⁵ www.cia.gov. Purchasing Power Parity.

aylandi. Bular ASEAN davlatlarining ijtimoiy–siyosiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. ASEAN ichki birlikni qo‘llab–quvvatlovchi, mintaqa ichra va dunyo hamjamiyatida siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik masalalarida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan tashkilot maqomiga erishdi.

1997-yilgi Osiyo inqirozi ASEAN davlatlarini jiddiy valyuta va moliyaviy krizisga olib keldi. Bu inqiroz ularning milliy vayutasining qadrsizlanishiga, ishlab chiqarishning kamayishiga, inflyatsiya, ishsizlik, ijtimoiy nobarqarorlikka olib kelib, ASEANning dunyo maydonidagi tutgan o‘rniga salbiy ta’sir o‘tkazdi. XX asr oxiridagi bu inqiroz ASEAN davlatlarini iqtisodiy va ijtimoiy hayotini buzgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, rivojlanish strategiyalarini to‘g‘rilashga majbur qildi.

2004-yilning 26 dekabrda Janubiy Sharqiy Osiyoda yuz bergan zilzila va sunami natijasida qariyb 300 ming aholi hayotdan ko‘z yumdi. Sunami natijasida yetgan iqtisodiy zarar 14 mlrd. dollarni tashkil qilib insoniyat tarixida tabiiy hodisasi natijasida eng ko‘p yetgan zararlardan biri hisoblanadi. Iqtisodchilar hisob kitobiga ko‘ra, sunami natijasida Tailand YaIMning 0.7% daraja kamayishiga va eng ko‘p zarar ko‘rgan Maldiv oroli 4% ga kamayishiga olib keldi. Sunami natijasida Janubiy Sharqiy Osiyoning turizm va baliqchilik sohalariga jiddiy zarar yetdi¹⁶.

1997-yilgi Osiyo inqirozi va 2004-yilning oxiridagi sunami ASEAN davlatlariga jiddiy zarar yetkazgan bo‘lsada, hozirda ASEAN davlatlari dinamik ravishda rivojlanib kelayotgan davlatlardan hisoblanadi.

ASEANning shungacha bo‘lgan yilik faoliyatini o‘rganib, quyidagilarni aytish mumkin:

1. ASEAN tashkil qilingandan buyon, uning siyosati va yo‘nalishi takomillashib bordi. Bu ASEANni a‘zo davlatlararo turli sohalarda – siyosat, iqtisodiyot, savdo, xavfsizlik, madaniyat, fan va texnika masalalari yuzasidan samarali hamkorlik qilish imkoniyatini berdi.

2. ASEANning siyosiy va xavfsizlik sohalarda hamkorlik qilishi “sovuq urush” davrida iqtisodiy hamkorlikdan ko‘ra muhimroq va samaraliroq bo‘ldi.

¹⁶ www.reuters.com

Ammo hozirga kelib iqtisodiy hamkorlik ASEAN davlatlari uchun birinchilik statusiga aylandi.

3. Mintaqaviy va xalqaro masalalarda ASEAN davlatlari birdamlikni qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Vetnam Prezidenti Xo Shi Min "Birdamlik, birdamlik, birdamlik. Muvaffaqiyat, muvaffaqiyat, ulkan muvaffaqiyat" – deb ta'kilagan. Kambodja davlati inqirozga uchraganda, ASEAN davlatlari Kambojaning bu inqirozdan chiqishi uchun birgalikda faoliyat olib borganligi birdamlikning yaqqol namunasidir.

4. Mintaqa davlatlari o'rtasidagi kelishmovchilik va ixtiloflar yuzaga kelganda, ASEAN bu muammolarni kuch ishlatmasdan tinch yo'l bilan hal qiladi. ASEANning bunday yondashuv, ko'pgina mintaqaviy va xalqaro muammolar ("kapuch masalasi", ASEAN davlatlari orasidagi tortishuvlar)ni hal qilishda o'z samara va muvaffaqiyatini ko'rsatdi.

5. O'tgan yillar ichida ASEAN asoschilari bu muddat ichida yuqori iqtisodiy sur'at bilan rivojlanib industrializatsiya va modernizatsiya yo'lidan bordi. Hozirgi kunga kelib, bu davlatlar Yangi industrial mamlakatlar safiga kirdi.


6. ASEANga asoschi davlatlarning tez sur'atlar bilan rivojlanishiga sabab quyidagilar: mamlakat lider va boshliqlari to'g'ri siyosiy-iqtisodiy rivojlanish yo'lini olib borishi; bu davlatlarda urush bo'lmaganligi va tinch sharoitda rivojlanganligi; ASEAN davlatlari jahonning qulay sharoitlardan to'la foydalanganligi, ya'ni rivojlangan davlatlar tomonidan ulkan xorijiy investisiyalar kirib kelganligi; jamg'arma normasi yuqoriligi. Ma'lumki, agar davlatning jamg'armasi YaIMning 20% ga yetsa, davlat mustaqil rivojlanish darajasiga yetadi. 1960 yillarda YaID va ASEAN asoschi-davlatlari orasidan faqat Tayvangina ega edi. 1982 yilga kelib yuqorida keltirilgan davlatlardan Indoneziyadan boshqa hammasi jamg'arma darajasi 20% dan oshdi. Shaxsiy jamg'arma va xorijdan qo'shimcha moliyalashtirish natijasida ular ommaviy investitsiya qilish imkoniyatini berdi.

7. Shunday bo'lsada, XX asr oxirida yo'l quyilgan xato va kamchiliklari natijasida ASEAN davlatlari ijtimoy-iqtisodiy inqirozga uchradi va ASEAN

davlatlarining kamchilik va zaif tomonlarini ko'rsatib berdi. Bu inqiroz ASEAN davlatlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini qayta ko'rib chiqishga, faoliyatining shakl va uslubini qayta tashkil qilishga undadi.

8. Zamonaviy dunyoning ko'plab mintaqalarda urush va kelishmovchiliklar yuz berayotgan vaqtda, ASEAN mintaqaviy va global muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishga harakat qilmoqda. Bunday yondashuv ASEAN davlatlarining hamkorlik va a'zo-davlatlar huquqini himoya qilishning oqilona usulidir.

Kambodja, Laos, Birma va Vetnam davlatlari aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM 1000 dollardan kamligiga sabab ularning iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining ulishi ko'pligi, sanoat va xizmat sohalarning rivojlanmaganligi hamda bu davlatlarda yaqin kunlarga urush va iqtisodiy inqirozlar bo'lganligidir.



Manba: www.imf.org/economic/development/world/countries

2.2.1-rasm. Jahon mamlakatlarining 2001-2013 yillardagi YaIM o'sish darajasi

1998-yilning oktyabrida ASEAN investisiya hududi yaratish to'g'risida bitim tuzdi. ASEAN investisiya hududi Assotsiatsiyaning hamma davlatlarini o'z ichiga olib, ichki va tashqi investorlarni soliq va boshqa turli imtiyozlari berish evaziga jalb qilishni o'zlariga maqsad qilib qo'ygan.

ASEAN investisiya hududini tashkil qilishga 1997 yilgi Janubiy Sharqiy Osiyo inqirozi sabab bo'ldi. Strategik jihatdan muhim bo'lgan investorlarni o'zlarida saqlab qolish uchun oldin yopiq bo'lgan iqtisodiyot tarmoqlarini investorlarga ochishga majbur bo'lishdi.

ASEAN investisiya hududini yaratish bitimiga ko'ra Assotsiatsiya 2010-yilgacha ichki investorlarga, tashqi investorlarga 2020-yilgacha milliy sanoat tarmog'ini bosqichma-bosqich ochishni majburiyatini o'z zimmasiga olgan.

1998-yil ASEAN Osiyo iqtisodiy ittifoqini, yagona bozor tuzishga kirishdi. Bu jarayon 2020-yilga kelib tugash ko'zda tutilgan edi. Bu vaqt oralig'ida ASEAN davlatlari bir-biriga ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy va xavfsizlik sohalarda yanada integratsiyalangan hamkorlik o'rnatishni o'zlariga maqsad qilishgan. 2020 yilga kelib ASEAN davlatlari o'rtasida tovarlar, xizmat va kapitallar erkin ko'chib yurishi rejalashtirilgan edi. Ammo to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilishda Xitoy va Hindiston kabi raqobatdoshlarning paydo bo'lishi ASEANni yagona bozorni shakllantirish jarayonini tezlatishga undamoqda. 2006 yil 18 sentabr Xelsinkida bo'lib o'tgan ASEM (The Asia Europe Meeting, ASEM)ning navbatdagi 6 sammitida ASEAN iqtisodiy muassasa boshliqlari yagona bozorni 2015 yilgacha tashkil qilish masalasini ko'rib chiqdi. ASEAN bosh kotibi Ong Keng Yong "Tanlangan yo'ldan adashmasligimiz uchun biz integratsion jarayonlarni tezlatishimiz kerak. Tanaffusga vaqt yo'q. Aks holda e'tibor Xitoy va Hindistonga qaratiladi", - deb ta'kidlab o'tdi.

Yagona hisob birligi ACUni (Yevropa Ittifoqidag ECU kabi) yaratish rejasi bo'lsada, ASEAN yagona valyuta kirishga shoshilgani yo'q. Chunki 80% tovar aylanmasi tashqi hamkorlarga to'g'ri keladi. Bundan tashqari ASEAN davlatlarining iqtisodiy rivojlanish darajasi bir-biridan farq qiladi. Singapur, Tailand, Malayziya va Filippin mamlakatlari industrial rivojlangan davlatlar bo'lsa, Kambodja, Vetnam va Birma mamlakatlarida sanoat sohasi rivojlanmagan¹⁷.

¹⁷ el.tfi.uz/umk/.../пк6%202012/.../5-мав3y.doc

ASEAN davlatlari integrasion jarayonlarida bir qancha muammolar mavjud. ASEANdagi eng asosiy muammo – a'zo mamlakatlarning rivojlanish darajasidagi farq va ularning YaIM tarkibida asoschi davlatlarning ulishi ko'pligi.

ASEAN tarkibiga kiruvchi “Osiyo yo'lbarlari” Malayziya, Indoneziya va Tayland davlatlari 1980-90 yillarda tez sur'atlar bilan rivojlandi. Buning sababi ular Yaponiya, Shimoliy Amerika va Yevropa Ittifoqi bilan savdo munosabatlarini o'rnatishi, Transmilliy Korxonalar ASEAN davlatlariga bevosita xorijiy investisiyalar kiritishi va eksportga yo'naltirilgan siyosat olib borishi bo'ldi.

1997 yilgi Osiyo inqirozi shuni ko'rsatdiki, ASEAN iqtisodiy integratsiyasidagi asosiy kamchilik quyidagilar:

- birdamlik, ixtiyoriylik va aralashmaslik siyosatining samarasizligi;
- davlatlar ustidan nazorat qiluvchi boshqaruv institutining mavjud emasligi;
- millatlarni boshqaruvchi kuchning mavjud emasligi.

ASEAN davlatlardagi eng asosiy integrasion muammo – ularning iqtisodiy va siyosiy rivojlanish darajasidagi nomutanosiblik. Hatto asoschi davlatlar – Singapur, Tayland, Malayziya, Indoneziya, Filippin va Bruney davlatlarida yagona iqtisodiy siyosat bitimi yo'q.

Indoneziyada xorijiy investisiyalar zamonaviy eksport sohalariga yo'naltirilgan bo'lsada, iqtisodiyot sektorining ko'pgina qismi orqada qolmoda. O'n millionlab dehqonlar qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat ko'rsatmoqda. Bu holga qarama-qarshi o'laroq, Singapurda moliya, savdo sohalari rivojlangan. Indoneziya qishloq xo'jaligini tashqi raqobatchilarga ochib bersa, millionlab dehqonlar hayoti xavf ostida qoladi va buning ijtimoiy natijasi salbiy oqibatlariga olib keladi. Bu hol Vetnam, Laos, Kambodja va Birma davlatlarida yanada ayanchlidir.

ASEAN davlatlarida iqtisodiy integratsiya rivojlanmagani ularning o'zaro savdosida ham o'z aksini topgan. ASEAN erkin savdo hududi (AFTA) tashkil qilingandan boshlab, ya'ni 1993 yildan 2005 yilgacha o'zaro savdo 21.14% dan 24.5 gacha o'sdi. Bu ko'rsatkichning asosiy qismini mintaqada joylashgan

Transmilliy korxonalar o'rtasidagi yarim fabrikat mahsulot transferlari tashkil qiladi¹⁸.

ASEANdagi muammolardan yana biri ASEAN ichidagi hududiy-chegaraviy muammo (Malayziya-Singapur, Malayziya-Filippin, Malayziya-Indoneziya).

ASEAN tarkibidagi yangi davlatlarning turli darajada davlatlarning aralashuvi asosida iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish muammosi.

Birdamlik (konsensus) va o'zaro konsultatsiyaga asoslangan ASEANning davlatlararo statusi – Assotsiatsiya statusini saqlab qolish yoki YeIdagi kabi davlatlar ustidan nazorat qiluvchi organ tashkil qilishdagi qarama-qarshilik.

ASEAN+3 (ASEAN, Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasi) keng masshtabli Sharqiy Osiyo iqtisodiy hamjamiyatini tashkil qilish natijasida ASEANning yangi integrasion jarayonga qo'shilish muammosi.

Janubiy Sharqiy Osiyo mintaqasida ikkita parallel jarayon ko'zatilmoqda. Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va ASEAN davlatlarining iqtisodiy globalizatsiya jarayoniga qo'shilishi. Bu ikki qarama-qarshi tendensiya ASEAN istiqboli muhokamasi asosi hisoblanadi.

2010- yili Xitoyda ASEAN mamlakatlari tovarlariga bojxona bojlarining o'rtacha stavkalari 9,8%dan 0,1%gacha pasaytirildi, ASEANning olti mamlakatlari (Bruney, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur va Tailand) tomonidan Xitoy tovarlariga nisbatan kiritilgan bojxona bojlarining o'rtacha stavkalari 12,8dan 0,6%ga pasaytirildi. 2015- yilga kelib, Xitoy va ASEANning yangi a'zolari (Vetnam, Laos, Kambodja va M'yanma) bilan o'zaro savdodagi mahsulotning 90%ga bojlar bekor qilinadi¹⁹.

Xitoy-ASEAN erkin savdo hududi rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi erkin savdo hududlarining EI va Shimoliy Amerika erkin savdo hududidan (NAFTA) farqlanadigan yangi modeliga aylandi. Birinchidan, ushbu hudud Shimoliy Amerika hududiga o'xshab bir vaqtda emas, ma'lum vaqt mobaynida

¹⁸ www.wsws.org ASEAN's problems on display at Bali summit // by John Roberts

¹⁹ Xitoy ASEAN erkin savdo hududi tuzish. Создание зоны свободной торговли Китай - АСЕАН – образец взаимовыгодного и взаимовыигрышного регионального сотрудничества. URL.:<http://Russian.people.com.cn/95181/6857733.html> (3/04/2011).

tashkil etilgan. Ikkinchidan, a'zo mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlar bo'lishiga qaramay, ular BST me'yorlari va qoidalariga rioya qiladilar. Erkin savdo hududi ishtirokchilari boshqa mamlakatlar uchun savdo to'siqlarini yaratmaydilar. Uchinchidan, hamkorlik hududning brcha mamlakatlari uchun foydali bo'lishi uchun ko'proq rivojlangan mamlakatlar rivojlanmaganlariga yordam berishlari lozim.

2010- yil mobaynida Xitoy-ASEAN erkin savdo hududi mamlakatlari o'rtasidagi savdo aylanmasi 160 mlrd dollardan oshib ketdi Xitoyga import Assotsiatsiya mamlakatlaridan eksport hajmiga nisbatan 7,5 mlrd dollarga oshib ketdi. SHu bilan birga, Xitoyning ASEANga nomoliyaviy investitsiyalarining hajmi 2010- yili o'tgan yilga nisbatan ikki yarim baravarga yuqori.

2.3.1-jadval.

2010- yili Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasining ASEAN mamlakatlari bilan tovar aylanmasi(mln.AQSH doll.)

Mamlakatlar	Xitoy		Yaponiya		Koreya Respublikasi	
	Eksport	Import	Eksport	Import	Eksport	Import
Bruneý	140	282	162	3320	62	1237
Vetnam	16303	4741	6518	6959	6828	1782
Indoneziya	14744	13538	9334	21817	7435	7884
Kambodja	905	36	112	143	190	10
Laos	376	337	76	27	47	46
Malayziya	19636	32224	12863	16732	4691	7407
Myanma	2279	646	202	340	213	102
Singapur	25964	26357	18758	12305	14061	12570
Tailand	13326	24846	22259	16029	4986	2090
Filippin	8591	11936	8234	6401	3822	2538
JAMI	102264	114943	78518	84073	42315	38666

Manba: Direction of Trade Statistics International Monetary Fund. September 2011. P.214-215.

ASEAN va Yaponiya o'rtasida savdo hamkorlik tobora kengayib va chuqurlashib bormoqda. 2010-yili ikki yoqlama savdo aylanmasi 162,6 mlrd.dollarga etdi. ASEAN tashqi savdo aylanmasi bo'yicha Yaponiya uchun Xitoy va AQSHdan keyin uchinchi o'rinni egallaydi.

2008- yili Yaponiya va ASEAN o'rtasida ko'p yoqlama hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. Ushbu bitim tovarlar va xizmatlar savdosi hamda investitsiya faoliyati hamda iqtisodiy hamkorlikni tartibga solish masalalarini qamrab olgan.

Bitim mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishiga, hududda katta imkoniyatlarga ega samarali bozor yaratilishiga yordam beradi.

2008-yildan boshlab Yaponiya ASEAN mamlakatlaridan import qilinayotgan tovarlarning 93%ga bojxona bojlarini bekor qildi. O'z navbatida, ASEANga a'zo oltita mamlakat (Bruney, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur va Tailand) import qilinayotgan tovarlarning 90%ga, shu jumladan avtomobillarga bojxona bojlarini bekor qildilar. Bundan tashqari Yaponiya Assotsiatsiya mamlakatlari uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmining ikkinchi manbai bo'lib hisoblanadi.

ASEAN mamlakatlarining yana bir yirik partneri Koreya Respublikasi bilan ham o'zaro foydali savdo-iqtisodiy shartnomalar imzolangan. Koreya Respublikasi va ASEAN o'rtasida savdo muntazam ravishda oshib bormoqda, oxirgi besh yilda uning hajmi 2005- yildagi 79,2 mlrd.dollardan 2010- yilda 79,2 mlrd.dollarga etdi.

1997- yildan boshlab ASEAN uchta etakchi savdo va siyosiy sheriklar – Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasi bilan hamkorlik qilmoqda. Shu davrning o'zida ASEANga a'zo mamlakatlar, shuningdek Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasi barcha ishtirokchilar manfaatlarini hisobga oladigan muzokaralarni amalga oshirmoqdalar. Ushbu ittifoq “ASEAN+3” deb nomlana boshladi. Hozirda ushbu ittifoqqa kirgan mamlakatlar o'rtasida hamkorlik iqtisodiyot va moliya, qishloq va o'rmon xo'jaligi, sog'liqni saqlash, atrof muhitni muhofazalash, siyosat, xavfsizlik, fan va texnologiya, turizm, tabiiy ofatlar va h.k. qamrab olgan 20dan ortiq sohalarda amalga oshirilmoqda.

2010- yili ASEAN mamlakatlarining “+3” (Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi) davlatlariga yalpi eksporti 225,4 mlrd.AQSH dollariga etdi. Eksportning o'tgan yilga nisbatan o'sishi 17,1%ni tashkil qildi. ASEANning “+3” mamlakatlaridan importi 254,7 mlrd.dollarga teng bo'ldi. Global moliyaviy inqirozga qaramay, bu ko'rsatkichlarning o'sishi kuzatilmoqda.

“ASEAN+3” mamlakatlari uchun energetika sohadagi hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega, chunki energetika sohasidagi barqarorlik dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. SHuning uchun “ASEAN+3” mamlakatlarining har bir

sammitida energetika sohasida barqaror va xavfsiz rivojlanishni ta'minlash masalalariga katta e'tibor qaratiladi. Oxirgi sammitda ham energoresurslar iste'molini, shuningdek neft importiga bog'liqlikni pasaytirish maqsadida energetika sohasida hamkorlikni kengaytirish bo'yicha bir qator bitimlar imzolandi²⁰.

So'nggi yillarda ASEAN, Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi barcha sohalarida o'z hamkorliklari ko'lamini tobora kengaytirmoqdalar. Ayniqsa yuqori suratlar bilan turizm hamda oziq-ovqat xavfsizligi sohalaridagi hamkorlik rivojlanayapti, chunki bu sohalar hududning barqaror iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining asosiy omili sifatida qaralmoqda. Shundan kelib chiqib, a'zo mamlakatlarning har biri o'z resurs salohg'iyatidan oqilona foydalanish va qishloq xo'jaligini rivojlantirishga intilmoqda. 2010 - yilning oktyabrida "ASEAN+3" mamlakatlari doimiy guruch zahirasi yaratish haqida uzil-kesil kelishib oldilar.²¹

"ASEAN+3" mamlakatlari tomonidan 2011- yilning mayidan boshlab yangi hamkorlikdagi - Osiyo hududining iqtisodiy monitoringi bo'yicha boshqarma loyihasi ishga tushirildi. Ushbu boshqarma tomonidan bir qator makroiqtisodiy tadqiqotlar o'tkazilmoqda, shuningdek "ASEAN+3" mamlakatlarida kreditlash muammolari o'rganilmoqda.

Ijtimoiy ta'minot va rivojlanish sohasida "ASEAN+3" mamlakatlari hamkorlikni quyidagi ustivor yo'nalishlarda amalga oshirmoqdalar:

- jamiyatning qarish tendensiyasiga qarshi siyosat va dasturlar ishlab chiqish;
- ijtimoiy sohada inson resurslarini rivojlantirish;
- qariyalar va nogironlar uchun ijtimoiy yordam va xizmatlar tashkil etish.

Sog'liqni saqlash sohasida "ASEAN+3" mamlakatlari katta yutuqlarga erishdilar. Profilaktika qilish, kuzatish va vujudga kelayotgan infeksiyon kasalliklarni lokallashtirishga asoslangan infeksiyon kasalliklarga regional tayyorgarlikni oshirish bo'yicha Kompleks Dastur HINI (cho'chqa grippi) va

²⁰ASEAN China Free Trade Area. URL.: <http://www.asean-cnorg-item/1097.aspx> (5.04.2011)

²¹The Mainichi Daily News (Japan) 2010 October 30.

H5N1(parranda grippi) kasalliklarni o'z vaqtida oldini olish imkonini berdi. Sog'liqni saqlash sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish maqsadida "ASEAN+3" mamlakatlarida yangi infeksiyon kasalliklar bo'yicha Axborot Markazi tashkil qilindi.

ASEAN, Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi mamlakatlari o'rtasidagi kompleks hamkorlik jahonda osiyo hududining kuchayishiga olib keladi. Xitoy – ASEAN Erkin savdo hududining yaratilishi mamlakatlar o'rtasidagi savdo aylanmasini bir nacha barobarga oshirdi. Hozirda Xitoy – ASEAN Erkin savdo hududiga Xitoy va ASEANning 6ta davlati (Brunej, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur va tailand) kiradi, biroq 2015 - yilgacha ularga qolgan ASEANga a'zo davlatlar qo'shiladi. 2012 - yili yangi Koreya Respublikasi – ASEAN Erkin savdo hududi tashkil etildi. Ushbu zonaga ham ASEANning olti davlati kirdi. Yaponiya – ASEAN muzokaralari ham erkin savdjo hududi tashkil etilishiga olib kelishi lozim. Hozirning o'zida ASEAN+3 hamkorligi ijobiy natijalar bermoqda, o'z navbatida ushbu davlatlarning o'zaro ta'siri tobora kuchayib bormoqda, bu ular o'rtasidagi do'stona munosabatlar va hamkorlikning mustahkamlanishiga olib keladi.

2.3. O'zbekistonda Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish tajribasidan foydalanish imkoniyatlari

Umuman olganda, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari rivojlanish tajribasidan foydalanish va uni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini qidirish ma'lum qonun-qoidalar asosida amalga oshirish mumkin. Xususan, bu kabi tajribaning ayrim jihatlarini Respublikamizda foydalanish shart-sharoitlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Sababi mazkur mintaqa mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishi mavjud shart-sharoitdan kelib chiqib amalga oshirilgan. Uning barcha jihatlarini amaliyotga tadbiq qilish haqiqatdan biroz uzoqroq. Masalan, Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasining geografik joylashuvi ham katta ahamiyat kasb etgan. Ya'ni,

mintaqa siyosiy manfaatlar doirasida bo'lib kelgan. Iqtisodiy tarixi ham ancha farq qiladi. Bozor munosabatlari shakllanishi masalasi boshqa mintaqalardan farqlar borligini sezishimiz mumkin. Aytish mumkin bo'lsa, mintaqaning investitsiya siyosatini olib borish tajribasini yanada kengroq o'rganish va uni amaliyotda foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqish Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishda ma'lum ahamiyat kasb etish mumkin.

Milliy iqtisodiyotga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar avvalo "faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil etishni tezlashtirish borasida faol investitsiya siyosati" bo'lib, mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda va ushbu yo'nalishda xorijiy mamlakatlarda to'plangan tajribalarni ilmiy tadqiq qilish dolzarb masaladir.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotida ahamiyati yuqori bo'lib, aynan bu toifadagi investitsiyalar mintaqada eksportning o'sishiga asosiy omil bo'ldi. Xorijiy kompaniyalar birinchi navbatda tez rivojlanuvchan tarmoqlardan bo'lgan elektron va elektrotexnika sanoatiga e'tibor qaratdi. Investitsiyalarning samarali oqimi tufayli mintaqa mamlakatlari tez sur'atlarda agrar ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi mamlakatlarga aylandilar²².

Mintaqada Malayziya va Tailand xorijiy investitsiyalar jalb qiluvchi eng ochiq davlatlar sifatida hisoblanib, jumladan, ular xorijiy investorlar ko'magida eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarni rivojlantirishga muvaffaq bo'ldilar. Keyinchalik ushbu turli mintaqaviy tarkibiy tuzilmalarda investitsiyalarni jalb qilish siyosatidan keng foydalanib, xorijiy investitsiyalar oqimi ta'sirida tez rivojlanuvchan iqtisodiyot sifatida e'tirof etildilar.

Xorijiy investorlar import o'rnini bosuvchi yoki eksportga yo'naltirilgan siyosat talablaridan kelib chiqqan holda ayrim tarmoqlarga keng jalb qilingan

²² <http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/15407-janubiy-sharqiy-osiyo-mamlakatlarida-xorijiy-invtitsiyalarni-jalb-qilish-siyosati>

bo'lsa, boshqalarida turli cheklovlar orqali to'sib qo'yildi. Jumladan, eksport uchun faoliyat ko'rsatayotgan kompaniyalarga imtiyozlar foydalanishda ustunliklar berilgan bo'lsa, mahalliy bozorga kirib kelayotgan va o'z mahsulotini sotishga harakat qilayotgan kompaniyalar faoliyati tazyiqqa uchradi. Ammo jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi mintaqa mamlakatlarini ichki bozorga xorijiy investorlarni kirib kelishini erkinlashtirish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga, qayd etish kerakki, bir necha o'n yillar mobaynidagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning iqtisodiyotdagi ustuvorligi mintaqadagi xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi strategik siyosatga bevosita bog'liqdir. Chunki, eksportga yo'naltirilgan firmalarga turli-tuman imtiyozlar berilgan bo'lib, bunday holat, ayniqsa, mintaqaning Indoneziya, Filippin va Tailand kabi mamlakatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu firmaning filiali ustidan to'liq nazorat qilish, tezkor ro'yxatdan o'tkazish, erga egalik huquqi, soliq va boj to'lashdagi imtiyozlarida namoyon bo'ldi. Ushbu mamlakatlarda ichki va tashqi investorlarga taqdim qilinayotgan qator imtiyozlar uchun alohida faoliyat yo'nalishlari belgilangan bo'lib, bu bilan hukumatlar o'z mahsulotlarini eksportga chiqarishga va yuqori texnologiyalarga ehtiyoj bo'lgan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashni ustuvor vazifa sifatida e'tirof etdilar.

Mintaqada xorijiy investitsiyalar jalb qilishni qo'llab-quvvatlash ikki shakldan iborat bo'lib, birinchi shaklda soliq imtiyozlari muayyan muddatga berilib, Tailand, Malayziya va Filippinda asosan ushbu shakldagi imtiyozlar qo'llanilgan.

Ikkinchi shaklda esa, ichki investitsiyalarda qo'llanilgan turli cheklovlardan hamda ishlab chiqarish vositalari va materiallari uchun belgilangan import poshlinalaridan ozod qilinadilar²³.

Shuningdek, investitsiya jalb qilish siyosatiga ta'sir qiluvchi omil sifatida mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, mintaqa mamlakatlaridan biri bo'lgan Indoneziyada

²³ <http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/15407-janubiy-sharqiy-osiyo-mamlakatlarida-xorijiy-invtitsiyalarni-jalb-qilish-siyosati>

birinchi marta demokratik saylovlar o'tishi va shu asosda mamlakatda demokratik o'zgarishlarni amalga oshirilishi siyosiy barqarorlikni ta'minlab, iqtisodiy barqarorlikka zamin yaratdi. Ta'kidlash joizki, ushbu mamlakatning so'nggi yillardagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari ijobiy tendensiyanı namoyon qilmoqda:

- rupiyni ayirboshlash kursi qulay tarzda o'zgarmoqda;
- inflyasiya darajasi nisbatan past bo'lib, 6-6,5 foizni tashkil etmoqda;
- ichki iqtisodiy o'sish 6,1-6,4 foiz atrofida kuzatilmoqda;
- foiz stavkasi 8,0 foizga qadar tushib kelmoqda.

Investitsion faoliyatni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida Indoneziya hukumati quyidagi me'yoriy-huquqiy qonunchilikka o'zgartirish kiritiladigan tadbirlarni amalga oshirdi:

- davlat va mahalliy hokimiyatning boshqaruv tizimini eng maqbul ishbilarmonlik muhitini yaratish bo'yicha investitsion xizmatlarni institutsional mustahkamlashni uyg'unlashtirish;
- bojxona poshlinalari va aksizlarga, soliq protseduralariga, bojxona omborlaridan tovarlar harakatini yaxshilash, kontrabanda mahsulotlar kirishiga to'siqlar qo'yishga taalluqli siyosatni shakllantirish;
- soliq islohotlarini amalga oshirish, eksportni rag'batlantiruvchi investitsion soliq imtiyozlari, soliq to'lovchilari huquqini himoya qilish hamda bu boradagi shaffoflikni ta'minlash;
- mehnat resurslari borasidagi masalalar bo'lib, ish o'rinlarini yaratishda qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, xodimlarni ishga olishda tartib-qoidalarini soddalashtirish va ishchi kuchi migratsiyasida yangi yondashuvlarni rivojlantirish;
- kichik va o'rta tadbirkorlikka doir masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan siyosatni qo'llab-quvvatlashdir.

Indoneziya iqtisodiyotida maxsus iqtisodiy zonalarini yaratish alohida o'rin tutib, ular mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli darajada ta'sir etadi. Chunki, iqtisodiy zonalar tez rivojlanishga, to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy ta'sir etib, u erda yangi ish

o‘rinlari yaratiladi, zamonaviy texnologiyalar jalb qilinadi, turdosh tarmoqlarnig iqtisodiy yuksalishiga asos solinadi.

Shuningdek, Malayziyaning mamlakatga investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan tadbirlari ham ahamiyatlidir.

Malayziyaning strategik tadbirlari dastlab ayirboshlash kursi bilan bog‘liq jarayonni erkinlashtirishdan iborat bo‘ldi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan bog‘liq boshqa tadbirlar quyidagilardir:

- Malayziyada tadbirkorlikka ko‘mak beruvchi maxsus komissiya tashkil qilindi. Ushbu maxsus komissiya tomonidan mavjud qonunchilikni tartibga solish tizimini yaxshilash borasidagi tadbirlar ishlab chiqildi, mahalliy hokimiyatning byurokratik to‘siqlari qisqartirildi;
- Malayziya sanoatni rivojlantirish tashkiloti tavsiyasiga muvofiq, xizmatlar sektorida boj to‘lovlaridan ozod qilishi qo‘llanildi;
- xorijiy investorlarning mulk xarid qilish jarayoni yengillashtirilib, ko‘chmas mulk solig‘idan ozod qilindi;
- investitsiyalar bo‘yicha qo‘mita tashkil qilinib, investorlar tezlashgan tarzda ro‘yxatdan o‘tkazildi va muhim investitsion loyihalar tegishli imtiyozlar bilan ta‘minlanib, bajarilishi nazorat qilindi²⁴.

Malayziya hukumati tomonidan o‘rish va rivojlanish bo‘yicha milliy rejani amalga oshirish boshlandi. Shu bois 2006 yildan Uchinchi asosiy sanoat rejasi va to‘qqizinchi Malayziya rejasi boshlab yuborildi. Uchinchi asosiy sanoat rejasi 2006–2020 yillardagi qayta ishlash tarmog‘ini va u bilan bog‘liq bo‘lgan sektorlarni rivojlantirish strategiyasi va siyosatini qamrab oladi, shu bilan birga, to‘qqizinchi Malayziya rejasi 2006 – 2020 yillar mobaynida amalga oshiriladigan tadbirlar va tashabbuslarni detallashtiradi. Har ikkala rejaga kirgan tadbirlar investitsiyalar jalb qilishni qo‘llab-quvvatlaydigan rag‘batlantirish mexanizmi orqali mamlakat iqtisodiyotining jahondagi raqobatbardoshligiga erishishga qaratilgan.

²⁴ <http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/15407-janubiy-sharqiy-osiyo-mamlakatlarida-xorijiy-invtitsiyalarni-jalb-qilish-siyosati>

Investitsiyalar jalb qilish siyosati va u bilan bog‘liq strategik rejalar hamda amalga oshirilgan islohotlar Filippinda ham ijobiy investitsion natijalarni ta’minladi.

2007- yilda qabul qilingan Ustuvor yo‘nalishlarning investitsion rejaları Filippindagi “1-jahon maqomiga millatni 20 yildan so‘ng erishtirish” qarashlarga mos keladi. Ushbu reja, shuningdek, avval amalda bo‘lgan Sanoat klasteri yondashuvini o‘zida ifoda qilib, unda mamlakatga investitsiyalarni jalb qilish, sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlash, kichik va o‘rta biznes korxonalarini rivojlantirish tadbirlari o‘rin olgan.

Tailandning investitsiyalar bo‘yicha vazirlik siyosatida xorijiy investitsiyalar jalb qilishning asosan uch tarmoq yo‘nalishida amalga oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan:

1. Elektron sanoat – ushbu tarmoqda mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan yuqori texnologiyali uskunalar va sanoat mahsulotlarini qo‘llash, bu borada maksimal darajada soliq boshqa imtiyozlaridan foydalanish;

2. Neft-kimyo sanoati – ushbu tarmoqni rivojlantirishdan maqsad Tailand importini qisqartirish, neft-kimyo sohasining raqobatbardoshligini jahon bozorida mustahkamlashdir. Tarmoqda xlorli natriy, xlor, gidroxlorli kislota ishlab chiqarish bilan bog‘liq loyihalarga imtiyozlar joriy qilindi;

3. Avtomobil sanoati – tarmoq rivojlanishi tejamkor, atrof-muhitni kam ifloslantiruvchi va jahon andozalariga mos keluvchi motorli dvigatellarga qaratildi. Bu tarmoqda asosiy imtiyozlar daromad solig‘idan 8 yilga va import qilinadigan mashina va uskunalarni import boj to‘lovlaridan ozod qilish sifatida belgilandi.

Muxtasar aytganda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mintaqaviy tashabbuslardan tashqari har bir mamlakat yakka tartibda investitsiya jalb qilish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Ushbu mamlakatlarda iqtisodiyotning investitsiya jalb qilish borasidagi muayyan darajadagi ochiqligi va o‘zaro turli integratsion birlashmalardagi o‘zaro hamkorligiga qaramasdan siyosiy va iqtisodiy barqarorlik, qulay ishbilarmonlik muhiti, soliq siyosati, kichik va xususiy tadbirkorlikning rivojlanganligi, xalqaro

tashkilotlarga a'zo bo'lishi, infratuzilmalarni mustahkamlash, ta'lim darajasini oshishi, mehnat resurslarining salohiyati sezilarli o'rin tutadi. Bularning barchasi islohotlar va investitsiyalar jalb qilish bo'yicha tizimli siyosatning samarasi bo'lib, natija esa mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishida ko'rinadi.

XULOSA

Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan uslub bo'yicha Yangi industrial mamlakatlar qatoriga kiruvchi davlatlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotlarning miqdori; uning o'rtacha yillik o'sish sur'ati; YaIM tarkibidagi qayta ishlash sanoatining umumiy miqdori; chiqariladigan tovarlar umumiy miqdoriga nisbatan sanoat mahsulotlarining ulushi va eksport miqdori; xorijiy mamlakatlarga chiqariladigan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning umumiy miqdori kabi mezonlar bo'yicha alohida ajralib turadi.

Yangi industrial mamlakatlardan ba'zilarini, ya'ni Osiyo-Tinch okean mintaqasida joylashgan Janubiy Koreya, Gonkong (hozirda XXR hududida), Tayvan va Singapurni "Yangi Yaponiya" yoki "to'rt ajdaho" deb atashadi. Bunga sabab ularning iqtisodiy jihatdan tez rivojlanganligidadir. Bu taraqqiyotning asosini eksport sohasining rivojlanishi, tayyor mahsulotlarni eksport qilishni ko'paytirishdagi muvaffaqiyatlar, raqobatbardoshlikning yuqoriligi, jahon bozoridagi o'ziga xos tajovuzkorlik tashkil qiladi.

Yangi industrial mamlakatlar "to'rt ajdaho" iqtisodidagi keskin yuksalish tufayli 1970 – yillar o'rtalaridan boshlab o'z rivojida, ayniqsa eksportda yuqori natijalarga erishdi va amalda sanoati rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarildi. 80-yillarning ikkinchi yarmida ularning iqtisodiy o'sish sur'atlari 7-8%dan pastga tushmadi, umuman olganda o'rtacha 10 %ni tashkil qildi.

Bugungi kunda Janubiy-SHarqiy osiyo mamlakatlari ilmtalab va yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportchisiga aylanmoqda hamda ilmtalab mahsulotlar bozorida ularning maqomi tobora oshib bormoqda. Ushbu mamlakatlarning elektronika eksporti butun Osiyo davlatlari YAMMning 10%ni tashkil qiladi²⁵.

Hozirda Singapur, Malayziya va Tailand yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarga erishdi, o'z navbatida dunyo kompyuter jihozlari eksportining 10% Singapurga to'g'ri keladi. Tailand esa g'arb

²⁵Asian Development Outlook 2005: Economic trends and developing Asia/URL:<http://www.adb.org/Dokuments/Books/Ado/2005/se-asia.asp>

korporatsiyalari talabi asosida dasturiy ta'minot yaratadi va bu bo'yicha birinchi o'ri nni egallagan.

Ko'p tarmoqli integrasion jarayonlarga asoslangan xalqaro integratsiya birlashmalarini tashkil qilish XXI asr zamonaviy jahon iqtisodiyoti rivojlanish tendensiyasidir. Shulardan kelib chiqib, dunyodagi integrasion jarayonlar taraqqiyoti hususida quyidagi xulosa va takliflarni keltirish mumkin:

1. ASEAN integrasion jarayoni tashkil qilingandan buyon, uning siyosati va yo'nalishi takomillashib bordi. Bu ASEANni a'zo davlatlararo turli sohalarda – siyosat, iqtisodiyot, savdo, xavfsizlik, madaniyat, fan va texnika masalalari yuzasidan samarali hamkorlik qilish imkoniyatini berdi.

2. ASEANning siyosiy va xavfsizlik sohalarda hamkorlik qilishi “sovuq urush” davrida iqtisodiy hamkorlikdan ko'ra muhimroq va samaraliroq bo'ldi. Ammo hozirga kelib iqtisodiy hamkorlik ASEAN davlatlari uchun birinchilik statusiga aylandi;

3. Mintaqaviy va xalqaro masalalarda ASEAN davlatlari birdamlikni qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Vetnam Prezidenti Xo Shi Min “Birdamlik, birdamlik, birdamlik. Muvaffaqiyat, muvaffaqiyat, ulkan muvaffaqiyat” – deb ta'kilagan. Kambodja davlati inqirozga uchraganda, ASEAN davlatlari Kambodjaning bu inqirozdan chiqishi uchun birgalikda faoliyat olib borganligi birdamlikning yaqqol namunasidir;

4. Mintaqa davlatlari o'rtasidagi kelishmovchilik va ixtiloflar yuzaga kelganda, ASEAN bu muammolarni kuch ishlatmasdan tinch yo'l bilan hal qiladi. ASEANning bunday yondashuv, ko'pgina mintaqaviy va xalqaro muammolar (“kapuch masalasi”, ASEAN davlatlari orasidagi tortishuvlar)ni hal qilishda o'z samara va muvaffaqiyatini ko'rsatdi;

5. O'tgan yillar ichda ASEAN asoschilari bu muddat ichida yuqori iqtisodiy sur'at bilan rivojlanib industrializatsiya va modernizatsiya yo'lidan bordi. Hozirgi kunga kelib, bu davlatlar Yangi Industrial Davlatlar safiga kirdi;

6. ASEANga asoschi davlatlarning tez sur'atlar bilan rivojlanishiga sabab quyidagilar: mamlakat lider va boshliqlari to'g'ri siyosiy-iqtisodiy rivojlanish

yo'lini olib borishi; bu davlatlarda urush bo'lmaganligi va tinch sharoitda rivojlanganligi; ASEAN davlatlari jahonning qulay sharoitlardan to'la foydalanganligi, ya'ni rivojlangan davlatlar tomonidan ulkan xorijiy investisiyalar kirib kelganligi; jamg'arma normasi yuqoriligi. Ma'lumki, agar davlatning jamg'armasi YaMMning 20% ga yetsa, davlat mustaqil rivojlanish darajasiga yetadi. 1960 yillarda YAIM va ASEAN asoschi-davlatlari orasidan faqat Tayvangina bu ko'rsatgichga ega edi. 1982 yilga kelib yuqorida keltirilgan davlatlardan Indoneziyadan boshqa hammasi jamg'arma darajasi 20% dan oshdi. Shaxsiy jamg'arma va xorijdan qo'shimcha moliyalashtirish natijasida ular ommaviy investisiya qilish imkoniyatini berdi;

Zamonaviy dunyoning ko'plab mintaqalarda urush va kelishmovchiliklar yuz berayotgan vaqtda, ASEAN mintaqaviy va global muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishga harakat qilmoqda. Bunday yondashuv ASEAN davlatlarining hamkorlik va a'zo-davlatlar huquqini himoya qilishning oqilona usulidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasining davlat qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. I.A. Karimov. “Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot yo‘li”. Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti 2003-yil.
2. I.A. Karimov. “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari”. Toshkent “O‘zbekiston” nashriyoti. 2009-yil.
3. I.A. Karimov. “Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir”. Toshkent “O‘zbekiston” nashriyoti 2005-yil.

II. Ilmiy adayotlar

2.1. O‘zbek va rus tillaridagi adabiyotlar

4. Вахабов А.В.,Таджибаева Д.А., Хажибакиев Ш.Х. “Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар”. Т: Молия. 2011.
5. Usmonov A. ”Jahon iqtisodiyoti va XIM”. // Ma’ruzlar matni. – J: JDPI, 2010. – B.25.
6. G.Nazarova, N.Xakimov. “Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti” // O’quv qo’llanma. – T.: SIVSI, 2008. - B.106.
7. Soliyev A, Maxammadaliyev R. “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari” T. O'zMU. 2005 yil
8. Ergashev A va boshqalar. “Jahon mamlakatlari” Toshkent.2006 yil
9. Abdullayev O. “Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti”. Toshkent “Yangi asr avlodi”-. 2009 yil
10. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отнош. Учебник. 2004.
11. Булатов А.С. “Мировая экономика”. Учебник. Юристь. 2003 .

12. Дюмулен И. “Всемирная торговая организация”. Экономика. 2003 .
13. Киреев А. “Международная экономика”. В 2-х ч. Часть 1. 2004 .
14. Киреев А. “Международная экономика”. В 2-х ч. Часть 2. 2004.
15. Кругман П. СПб.: “Международная экономика”. 5-е изд. Питер. 2004.
16. Ломакин В. Юнити-Дана. “Мировая экономика”. Учебник. 2004 .
17. Миклашевская Н. “Международная экономика”. Учебник. 3-е издание. 2004.
18. Устинов И. Мировая торговля: статистич.- аналитический справ.
19. “Мировая экономика и международные экономические отношения. Серия учебников”. Учебное пособие. /Под ред. Аковопой Э.С., Воронковой О.Н., Гаврилко Н.Н-Ростов н/Д. Феникс, 2001г.
20. Toirov I, Fayzullayev M. “Jahon ijtimoiy – iqtisodiy geografiyasi” Ma’ruzalar matni Qarshi. 2000 yil
21. X. Abdunazarov” Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” II-qism (Dunyoning regional tavsifi) Ma'ruzalar matni Termiz. 2007 yil.

2.2. Xorij tilidagi adabiyotlar

22. F. Demetr. “Anatomically modern human in Southeast Asia. 2012. Proc Natl Acad Sci USA 109(36):14375-14380
23. Morwood, M.J; Brown, P., Jatmiko, Sutikna, T., Wahyu Saptomo, E., Westaway, K.E. “Further evidence for small-bodied hominins from the Late”. Nature 437 (7061): 1012-1017
24. Sneha Raghavan and Guy Ben Ari. Current issues-No. 25: ASEAN defence industry collaboration. www.csis.org
25. Huxley, Tim (2010) “ASEAN’s mixed bag”. The Diplomat. Retrieved 11 february 2015.
26. Huntington, Samuel. The clash of civilizations and the remaking of a New World Order.

27. Lay Hwee Yeo. Asia and Europe: the development and different dimensions of ASEM. Routledge (UK). ISBN 0-415-30697-3

28. Silp, Sai. "Burma an issue un ASEAN is no talk shop. Asian political news. Retrieved 6 march 2007.

Internet saytlari va axborot portallari

1. www.uz.denemetr.com
2. www.el.tfi.uz
3. www.elibrary.nammpi.uz
4. www.eduportal.uz
5. www.uz.wikipedia.org
6. www.referat.arxiv.uz
7. www.moodle.samtu.uz
8. www.armat.uz
9. www.ucell.dum.su
10. www.tdiu.uz
11. www.cia.gov
12. www.reuters.com
13. www.wsws.org
14. www.biznes-daily.uz
15. www.adb.org